

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

O`rinboyev Jo`rabek Ravshonbekovichning

Boburiylar davlati boshqaruvida din

5120300 Tarix

**(mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari

M. Radjapova

Andijon – 2015 yil

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3
2. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati.....	6
3. Boburiylar davlatining tashkil topishi va davlatchilik tarixi dagi o`rni.....	31
4. Davlat boshqaruvida dinning ahamiyati.....	36
5. Xulosa.....	46
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	47
7. Ilovalar.....	48

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda o'zimizni anglash uchun o'tmish va madaniyatimiz va san'atimiz ota-bobolarimiz ma'naviy o'gitlarini, ularning madaniyati, diniy dunyo qarashlari, dunyoviy tafakkurini bilishimizning zarurligi kuchaymoqda. Bu ehtiyojni qondirish esa tarixni ilmiy o'rganinshuni tadqiq etish orqali bo'lishi tabiiydir. O'tmish va yaratilgan ma'naviy- madaniy va adabiy meroslarni hozirgi kunda bemalol o'rganish ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari mavjud. Uzoq muddat diniy ta'limga muhtoj bo'lgan xalqimiz ayniqsa yoshlarimizga diniy – ma'naviy merosimiz na'munalarini yetkazishning o'zi mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi, o'z mustaqilligiga erishgach, zamonaviy davlatchilik tizimini barpo etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu ustivor yo'nalishdagi jadal harakatlarni amalga oshirishidan o'zbek xalqinig davlatchilik sohasida to'plagan ko'p asrlik boy tarixiy tajribasini atroflicha o'rganish va undan samarali foydalanish masalasi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, taqdim etilayotgan bitiruv malakaviy ishi fan nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Hamda, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgan talaba yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

Mavzuning maqsad vazifasi O'zbekiston tarixining o'ta qiziqarli va murakkab jarayonlarida davlatchilik tariqqiyotining o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lganligi, uning evolyutsiyasida mavjud bo'lgan ko'plab bosqichlar, tamoyillar, yo'nalishlar, qonuniyatlarning o'ziga xos ekanligi to'g'risida talabalarga chuqur bilimlar berish o'quv vazifadir. Ushbu maqsadga ershish yo'lida quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

- Turli tarixiy davrlarda o'zbek davlatchiligining rivojlanishiga ichki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarning ta'sirini ochib berish;

- Davlatchilik taraqqiyoti va xalqaro munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik tomonlarini atrofligi taxlil etish;
- mamlakat boshqaruvida din eng yaxshi tayanch vositasi bo'lishini
- o'zbek davlatchiliginingn ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan Boburiylar davlatchiligi va boshqaruvi masalalarini yoritish.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi Kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, ilova kabi qismlardan iborat bo'lib, unda oldimizga qo'ygan vazifani tarixiy adabiyotlarga suyangan holda imkon qadar uddalashga xarakat qilidik.

O'zbek xalqi o'tmishda o'tgan ko'plab buyuk daholari bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Ularning ko'plari nafaqat, o'z diyorida, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ma'lum va mashhurdir. Ana shunday mo'tabar zotlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bobur xalqimizga, butun dunyoda qo'rquv bilmas sarkarda, tadbirkor podshoh, mohir davlat arbobi, ayni paytda iste'dodli shoir, adib, donishmand, tarixchi, zukko olim va tarjimondir.

Bobur tarixda umri kurashlar, urushu g'alayonlar, notinchliklar bilan kechgan shaxs sifatida ham taniqli. U temuriylar saltanatini saqlab qolish uchun harakat qildi. Umri chet ellarda kechdi. Hayoti Afg'oniston, Hindiston kabi davlatlar bilan bog'liq bo'ldi. Bobur yirik madaniyat arbobi sifatida ma'lum. U yoshligidan ilm bilan shug'ullangani, fors, arab tillarini o'rganishi, adabiyot, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa va boshqa sohalar bilan shug'ullangani bois ham ma'rifatni anglaydigan, madaniyatli kishi bo'lib yetishdi. U fanning turli sohalariga doir ko'plab asarlar yozdi. Boburning lirik devonlari, «Boburnoma», «Mufassal», «Xatti Boburiy», «Harb ishi», «Musiqiy ilmi» islom dini asoslarining bayoni bo'lgan «Mubayyin», «Volidiya» tarjimasi va boshqa asarlari uning shuhratini yanada oshirdi.

Bobur keng dunyoqarashi, mukammal aql-zakovati, bilimi bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola Hindistonda 332 yil hukmdorlik qildi. Bobur avlodidan olti shaxs Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeblar bu yerda uzoq davr podshohlik qildilar.

I bob. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati.

O'zbek xalqi o'tmishda o'tgan ko'plab buyuk daholari bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Ularning ko'plari nafaqat, o'z diyorida, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ma'lum va mashhurdirlar. Ana shunday mo''tabar zotlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bobur xalqimizga, butun dunyoda qo'rquv bilmas sarkarda, tadbirkor podshoh, mohir davlat arbobi, ayni paytda iste'dodli shoir, adib, donishmand, tarixchi, zukko olim va tarjimondir.

Bobur tarixda umri kurashlar, urushu g'alayonlar, notinchliklar bilan kechgan shaxs sifatida ham taniqli. U temuriylar saltanatini saqlab qolish uchun harakat qildi. Umri chet ellarda kechdi. Hayoti Afg'oniston, Hindiston kabi davlatlar bilan bog'liq bo'ldi. Bobur yirik madaniyat arbobi sifatida ma'lum. U yoshligidan ilm bilan shug'ullangani, fors, arab tillarini o'rganishi, adabiyot, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa va boshqa sohalar bilan shug'ullangani bois ham ma'rifatni anglaydigan, madaniyatli kishi bo'lib yetishdi. U fanning turli sohalariga doir ko'plab asarlar yozdi. Boburning lirik devonlari, «Boburnoma», «Mufasssal», «Xatti Boburiy», «Harb ishi», «Musiqiy ilmi» islom dini asoslarining bayoni bo'lgan «Mubayyin», «Volidiya» tarjimasi va boshqa asarlari uning shuhratini yanada oshirdi.

Bobur keng dunyoqarashi, mukammal aql-zakovati, bilimi bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola Hindistonda 332 yil hukmdorlik qildi. Bobur avlodidan olti shaxs Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeblar bu yerda uzoq davr podshohlik qildilar.

Sharqning bu ulug' siymosi 1483 yil 14 fevralda Andijonda Amir Temurning o'g'li Mironshoh nabirasi Abusaid Mirzonning o'g'li Umarshayx oilasida tavallud topgan. Onasi Qutlug' Nigorxonim toshkentlik mug'ul xoni Yunusxonning qizi edi.¹

1494 yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning akasi Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo va Toshkent hokimi Mahmudxon qo'shin tortadi. Falokat

¹ Yoqubov X Bobir T.:1971 66-bet

ro'y berib, 1494 yil 7 iyunda Umarshayx vafot etadi. 11 yoshli ba'zan 12 yosh ko'rsatiladi. Bobur Farg'ona viloyatining hokimi bo'ladi. Goh g'alaba, goh mag'lubiyatga uchrab turgan Bobur Farg'ona va Samarqand mulkini qo'l ostiga birlashtirib tura olmadi. Katta kuchga ega bo'lgan Shayboniyxon Saripul va Axsida Boburga zarba berib, u yerlarni ishg'ol qiladi. Bobur quvg'in va sargardon bo'lib, chet ellarda faoliyat ko'rsatadi. Shayboniyxon tazyiqi ostida 1504 yili Bobur ozgina askar va a'yonlari bilan Qobulga borib o'rtnashadi. Bobur o'z yurtidan, toju taxtdan voz kechib ketolmaydi. Bir necha marta Samarqandni qayta yegallashga harakat qiladi. 1512 yilda shoh Ismoil Yordam olib, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandni uchinchi marta egallab oladi. Ubaydulla Sulton va Muhammad Temur Sulton 1513 yilning boshlarida katta qo'shin bilan Boburga qarshi yurish boshlaydilar. Bobur yengiladi. Ismoil madad uchun Najmi soniy boshliq qo'shin yuboradi. U ham yengiladi. Boburning o'z saltanatini egallash orzulari barbod bo'ladi. U Afg'onistonda o'z hokimiyatini mustahkamlab oladi. Bobur Hindistonga yurish rejalarini tuzadi. Birinchi navbatda Panjob viloyatini ishg'ol qilishni mo'ljallaydi. U Hindistonga yurish faoliyatini 1519 yildan amalga oshira boshlaydi, 1526 yilgacha besh marta harbiy yurish qiladi. 1526 yil noyabrdan harakati Sind, Panjob viloyatlari orqali Dehliga qaratilgan edi. 1526 yil aprelida Dehli sultoni Ibrohim Lo'di bilan jang qilib, uni yengadi. 27 aprelda Dehlida Bobur nomiga xutba o'qiladi. So'ng CHitora hokimi Rano Sango bilan jang bo'ladi. 1527 yil 16 martda Bobur g'alaba qozonadi. Bobur Hindistonda katta ishlarni amalga oshiradi. Uning avlodlari Bobur ishlarini davom ettiradilar.

I bob. Zahiridin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati.

O'zbek xalqi o'tmishda o'tgan ko'plab buyuk daholari bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Ularning ko'plari nafaqat, o'z diyorida, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ma'lum va mashhurdirlar. Ana shunday mo''tabar zotlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bobur xalqimizga, butun dunyoda qo'rquv bilmas sarkarda, tadbirkor podshoh, mohir davlat arbobi, ayni paytda iste'dodli shoir, adib, donishmand, tarixchi, zukko olim va tarjimondir.

Bobur tarixda umri kurashlar, urushu g'alayonlar, notinchliklar bilan kechgan shaxs sifatida ham taniqli. U temuriylar saltanatini saqlab qolish uchun harakat qildi. Umri chet ellarda kechdi. Hayoti Afg'oniston, Hindiston kabi davlatlar bilan bog'liq bo'ldi. Bobur yirik madaniyat arbobi sifatida ma'lum. U yoshligidan ilm bilan shug'ullangani, fors, arab tillarini o'rganishi, adabiyot, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa va boshqa sohalar bilan shug'ullangani bois ham ma'rifatni anglaydigan, madaniyatli kishi bo'lib yetishdi. U fanning turli sohalariga doir ko'plab asarlar yozdi. Boburning lirik devonlari, «Boburnoma», «Mufasssal», «Xatti Boburiy», «Harb ishi», «Musiqiy ilmi» islom dini asoslarining bayoni bo'lgan «Mubayyin», «Volidiya» tarjimasi va boshqa asarlari uning shuhratini yanada oshirdi.

Bobur keng dunyoqarashi, mukammal aql-zakovati, bilimi bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola Hindistonda 332 yil hukmdorlik qildi. Bobur avlodidan olti shaxs Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeblar bu yerda uzoq davr podshohlik qildilar.

Sharqning bu ulug' siymosi 1483 yil 14 fevralda Andijonda Amir Temurning o'g'li Mironshoh nabirasi Abusaid Mirzonning o'g'li Umarshayx oilasida tavallud topgan. Onasi Qutlug' Nigorxonim toshkentlik mug'ul xoni Yunusxonning qizi edi.

1494 yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning akasi Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo va Toshkent hokimi Mahmudxon qo'shin tortadi. Falokat

ro'y berib, 1494 yil 7 iyunda Umarshayx vafot etadi. 11 yoshli /ba'zan 12 yosh ko'rsatiladi/ Bobur Farg'ona viloyatining hokimi bo'ladi. Goh g'alaba, goh mag'lubiyatga uchrab turgan Bobur Farg'ona va Samarqand mulkini qo'l ostiga birlashtirib tura olmadi. Katta kuchga ega bo'lgan Shayboniyxon Saripul va Axsida Boburga zarba berib, u yerlarni ishg'ol qiladi. Bobur quvg'in va sargardon bo'lib, chet ellarda faoliyat ko'rsatadi. Shayboniyxon tazyiqi ostida 1504 yili Bobur ozgina askar va a'yonlari bilan Qobulga borib o'rtnashadi. Bobur o'z yurtidan, toju taxtdan voz kechib ketolmaydi. Bir necha marta Samarqandni qayta yegallashga harakat qiladi. 1512 yilda shoh Ismoilidan Yordam olib, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandni uchinchi marta egallab oladi. Ubaydulla Sulton va Muhammad Temur Sulton 1513 yilning boshlarida katta qo'shin bilan Boburga qarshi yurish boshlaydilar. Bobur yengiladi. Ismoil madad uchun Najmi soniy boshliq qo'shin yuboradi. U ham yengiladi. Boburning o'z saltanatini egallash orzulari barbod bo'ladi. U Afg'onistonda o'z hokimiyatini mustahkamlab oladi. Bobur Hindistonga yurish rejalarini tuzadi. Birinchi navbatda Panjob viloyatini ishg'ol qilishni mo'ljallaydi. U Hindistonga yurish faoliyatini 1519 yildan amalga oshira boshlaydi, 1526 yilgacha besh marta harbiy yurish qiladi. 1526 yil noyabrdan harakati Sind, Panjob viloyatlari orqali Dehliga qaratilgan edi. 1526 yil aprelda Dehli sultoni Ibrohim Lo'di bilan jang qilib, uni yengadi. 27 aprelda Dehlida Bobur nomiga xutba o'qiladi. So'ng CHitora hokimi Rano Sango bilan jang bo'ladi. 1527 yil 16 martda Bobur g'alaba qozonadi. Bobur Hindistonda katta ishlarni amalga oshiradi. Uning avlodlari Bobur ishlarini davom ettiradilar.

Olimlarimizning qayd etishicha, Bobur 47 yil umr ko'rgan bo'lsa, shundan 36 yilini uch mamlakatda: Movarounnahrda, Afg'onistonda, Hindistonda podshoh bo'lib o'tkazdi. 20 yil umri Movarounnahrda, 22 yili Qobulda, 5 yili Hindistonda kechdi. Bobur 1530 yil 26 dekabrda dushanba kuni nahorda Agrada bandalikni bajo keltiradi. Uning jasadini Agra shahrida Jamna daryosi bo'yidagi Bog'i oromga dafn etadilar. Boburning qizi Gulbadanbегinning yozishicha, qabr oldida besh vaqt namoz o'qib, marhumning ruhiga tilovat qilib turish uchun maxsus mutavali va 60 ta xushovoz qorilar tayinlangan.

Bobur Farg'ona viloyatining hokimi bo'ladi. Goh g'alaba, goh mag'lubiyatga uchrab turgan Bobur Farg'ona va Samarqand mulkini qo'l ostiga birlashtirib tura olmadi. Katta kuchga ega bo'lgan Shayboniyxon Saripul va Axsida Boburga zarba berib, u yerlarni ishg'ol qiladi. Bobur quvg'in va sargardon bo'lib, chet ellarda faoliyat ko'rsatadi. Shayboniyxon tazyiqi ostida 1504 yili Bobur ozgina askar va a'yonlari bilan Qobulga borib o'rtnashadi. Bobur o'z yurtidan, toju taxtdan voz kechib ketolmaydi. Bir necha marta Samarqandni qayta yegallashga harakat qiladi. 1512 yilda shoh Ismoilidan Yordam olib, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandni uchinchi marta egallab oladi. Ubaydulla Sulton va Muhammad Temur Sulton 1513 yilning boshlarida katta qo'shin bilan Boburga qarshi yurish boshlaydilar. Bobur yengiladi. Ismoil madad uchun Najmi soniy boshliq qo'shin yuboradi. U ham yengiladi. Boburning o'z saltanatini egallash orzulari barbod bo'ladi. U Afg'onistonda o'z hokimiyatini mustahkamlab oladi. Bobur Hindistonga yurish rejalarini tuzadi. Birinchi navbatda Panjob viloyatini ishg'ol qilishni mo'ljallaydi. U Hindistonga yurish faoliyatini 1519 yildan amalga oshira boshlaydi, 1526 yilgacha besh marta harbiy yurish qiladi. 1526 yil noyabrdan harakati Sind, Panjob viloyatlari orqali Dehliga qaratilgan edi. 1526 yil aprelida Dehli sultoni Ibrohim Lo'di bilan jang qilib, uni yengadi. 27 aprelda Dehlida Bobur nomiga xutba o'qiladi. So'ng CHitora hokimi Rano Sango bilan jang bo'ladi. 1527 yil 16 martda Bobur g'alaba qozonadi. Bobur Hindistonda katta ishlarni amalga oshiradi. Uning avlodlari Bobur ishlarini davom ettiradilar.

Olimlarimizning qayd etishicha, Bobur 47 yil umr ko'rgan bo'lsa, shundan 36 yilini uch mamlakatda: Movarounnahrda, Afg'onistonda, Hindistonda podshoh bo'lib o'tkazdi. 20 yil umri Movarounnahrda, 22 yili Qobulda, 5 yili Hindistonda kechdi. Bobur 1530 yil 26 dekabrda dushanba kuni nahorda Agrada bandalikni bajo keltiradi. Uning jasadini Agra shahrida Jamna daryosi bo'yidagi Bog'i oromga dafn etadilar. Boburning qizi Gulbadanbeganing yozishicha, qabr oldida besh vaqt namoz o'qib, marhumning ruhiga tilovat qilib turish uchun maxsus mutavali va 60 ta xushovoz qorilar tayinlangan. Boburning rafiqasi ikki yildan ortiq vaqt har kuni ikki mahal qo'y va mollar so'ydirib, tayinlangan qorilarga

tilovat qildirib turgan. Oradan bir necha yil o'tkach, Bobur vasiyatiga ko'ra uning xotinlaridan biri, hazratning qabrini Qobulga ko'chiradi.

Bobur shaxsiyati bilan bog'liq ba'zi jihatlar Gulbadanbegimning «Humoyunnoma»sida keltiriladi. U shunday yozadi: «Firdavs makonning katta o'g'illari Humoyun podshoh... Qobul arkida /1508 yil 7 mart/ tug'ildilar. O'sha yili Firdavs makon amrlari va boshqalari: «Endi meni Bobur podshoh deb atanglar», deb buyurdilar. Humoyun podshoh tug'ilmaslaridan burun Mirzo Bobur deb atash rasm edi. Chunki bugun podshohzodalarni Mirzo deb, o'zlarini esa Humoyun podshoh tug'ilgan yillaridan «Bobur podshoh», deb atashga buyurdilar.»¹

Gulbadanbegim Humoyun kasal bo'lganda Bobur iztiroblarini ham ta'sirli yozadi: «Menki, Boburman, umri jonimni o'g'lim Humoyunga bag'ishlayman» deb aytgani, Shundan so'ng Bobur kasal bo'lib yotib qolgani, Humoyun o'sha kuni o'rnidan turganini aytadi.

Bugungi kunda Boburga ulug' ehtirom ko'rsatilmoqda. Bu mustaqilligimiz, hukumatimizning o'tmish ajdodlarimiz merosiga bo'lgan buyuk e'tibor bilan bog'liq. Ayni kunda Andijonda muhtasham Bobur bog'i hammani lol qoldirmoqda. Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma, xalqaro ekspedisiyalar mavjudligi, 1993 yilda Bobur merosi bo'yicha xalqaro anjuman Samarqandda o'tkazilishi va boshqalar ana shu e'tibor natijasidir. Umuman, Bobur o'z shaxsiyati, merosi bilan xalqimizga xizmat qilaveradi.

Bobur ijodi ko'p qirralidir. Ammo uning she'riyat sohasidagi shuhrati yana ham yuksakroqdir. Boburning bizgacha rang-barang janrlardan iborat lirik devoni yetib kelgan. Bobur devonlarining qo'lyozma nusxalari unchalik ko'p emas. Devonlarining qo'lyozma nusxalari Parijda, Hindistonda, Turkiyada, Eronda va boshqa joylarda saqlanadi. Bu devonlar bir necha marta nashr etilgan. 1910 yilda Hindistonda, 1915 yilda Istambulda, 1917 yilda Petrogradda nashr etilgan. Bobur devonlari ingliz, fransuz va boshqa tillarda ham tarjima qilingan. 1943-1957 yillar orasida rus tilida nashr etilgan. Bobur devonida g'azallar, ruboiylar, tuyuqlar, fard, masnaviy kabi janrlar uchraydi. G'azal, ruboiy, tuyuqlarning turli xillarini

¹ Gulbadanbegim. Humoyunnoma. 33-bet. www.ziyo.net.uz

ko'ramiz, Bobur she'riyatining asosiy janrlari g'azal, ruboiy va tuyuqdir. Shoir devoni asosan o'zbek tilidagi she'rlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga bir necha fors-tojik tilidagi she'rlar ham mavjud. Bu esa Boburning fors-tojik tilini mukammal bilishini ko'rsatadi.

Bobur murakkab bir davrda yashadi. Uning hayoti ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, alam-iztiroblar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. «Boburnoma»da tasvirlangan ko'pgina voqealar shundan dalolat beradi. Bobur ruhan qiynalganda ham, hayoti quvonchu shodliklar bilan to'lganda ham, qiynoqlar girdobiga tushganda ham, mag'lubiyat alamini tortganda ham hamma-hamma vaqt she'riyat bilan sirlashadi. O'z holatini, yurak nolalarini she'rga ko'chiradi. «Boburnoma»da qayd etilgan, yozilish tarixi ko'rsatilgan ba'zi g'azallar, ruboiylarga e'tibor bersak, bu narsa yana ham oydinlashadi. «Boburnoma»da shoir o'zi birinchi tugal g'azalini 18-19 yoshlarida, 1501-1502 yillarda yaratganini qayd etadi. Va matla'ni keltirgan:

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim...¹

Ammo Bobur 1500 yilda shoir sifatida tanilgan. Hozircha uning 120 g'azal, 210ga yaqin ruboiysi, 10dan ortiq tuyuq, qit'a, fard, 150 dan ortiq muammosi yetib kelgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Bobur she'riyatining asosiy mavzusi ishq-muhabbatdir. Uning rangin kechinmalari, visol orzulari, hijron iztiroblari, yor go'zalliklari, oshiqning rang-barang holatlari bayon etiladi. Bobur yurt haqida, Vatan sog'inchisi, yor va diyorni madh etish, odob-axloq, ma'rifatni kuylash, davr ozorlaridan shikoyat kabilar haqida ham yozadi. Bobur she'riyatida ishq-muhabbat, hayot zavq-shavqlari kuylangan g'azallar anchagina. «Yoz fasli...» deb boshlanuvchi g'azalida «yoz fasli», «boda kayfiyati», «ishq dardi», «do'stlar suhbatini», «she'r bahsi» haqida gap boradi.

Shoir «Sochining savdosi...», «Sendek menga...», «Xazon yaprog'i yang'lig' gul yuzing hajrida sarg'ardim», «Ko'rmagay erdim jamolin...», «Jamoling vasfini...» deb boshlanuvchi g'azallarida ana shu ruh yetakchilik qiladi. Lirik qahramon yori visoliga orzumand. Uning yuzini ko'rish, so'zini eshitish niyatida. Bu istagi amalga oshmasa «Ayoq yetgancha ketgay»;

¹ Бабур наме Т.:1993 стр.4

Jamoling vasfini, ey oy, necha eldin eshitgaymen
Ne kun bo'lg'ay visolinga meni dilxasta yetgaymen.
Tarahhum yuzidin yuzingni ko'rmakka buyurgaysen
Xush ulkim, orazingni ko'rgaymen, so'zung eshitgaymen...

Ko'pgina g'azallarida yordan shikoyat, hayotdan nolish, vafosizlikdan afsuslanish, odamlardagi yomonliklardan arz bayon qilinadi. «Topmadim», «Yaxshilig'», «Parishon ro'zg'orim bor», «Qoldimu?», «Jonima ag'yorning» kabi radifli g'azallarida ana shu mavzular qalamga olingan. Lirik qahramon mana bu misralarda ham dildoridan, ham ag'yorlardan noliydi:

Qaysi bir ozorin aytay jonima ag'yorning
Qaysi bir og'ritqanin ko'nglumni dey dildorning.

G'urbat ichra, ey ko'ngul, eldin vafo istarni qo'y,
Chun vafosin ko'rmading hargiz diyoru yorning.
Bobur, ul gul javr etar, ag'yordin ne yaxshiliq,
Gulning ozori bu bo'lsa, vah ne bo'lgay xorning
Yoki:

Yor qadrin bilmadim to yordin ayrilmadim
Yor qadri muncha ham dushvor ekandur, bilmadim.

Ba'zi g'azallarda bevosita ma'shuqaning ko'rinishi, chiroyli surati chiziladi.
Ma'shuqaning ko'pgina a'zolari turli narsalarga tashbehlanadi:

Tushing dur, labing marjon, xading gul, xating rayhon
Yuzung hur, soching anbar, so'zung mul, menging meynon.
Meynon menging, so'zung mul, anbar soching, yuzung hur
Rayhon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur...

Bobur she'riyatining asosiy qahramoni shoirning o'zi. U oshiq, muhabbatni teran anglaydigan, o'zini ishq quli deb hisoblaydigan, hayotni chuqur kuzatadigan, davr qiyinchiliklaridan alam chekkan, hijrondan joni qiynoqda bo'lgan bir shaxs. Uning ko'ngil qo'ygan ma'shuqasi nihoyatda go'zal. Oshiq vafodor inson. U har qanday holatda ham ma'shuqasidan yuz o'girmaydi.

Keltursa yuz baloni o'shal bevafo manga

Kelsun, agar yuzumni evursam, balo manga.

Ba`zan lirik qahramon azoblardan qutulishga, o`zni shod tutishga harakat qiladi:

O`zni, ko`ngul, aysh ila tutmoq kerak

Bizni unutmakni unutmoq kerak...

Adabiyotshunos I.Haqqul Bobur she`riyatidagi tasavvufiy g`oyalar haqida ham mulohazalar yuritadi. «Boburnoma»dagi qator ma`lumotlar Boburning Shariat, Tariqat, Ma`rifat shartlarinigina emas, yaxlit holda, tasavvuf mohiyatini ham teran tushunganligiga to`la ishonch paydo qilishni yozadi. Shoirning she`riy maktubidagi mana bu misralarda ilohiy mohiyat yashiringanini ta`kidlaydi:

Aytgil ul husn xoniga

Demayn xon, balki jonlar joniga

Ko`rmayin yuzingni bemor o`lmisham

G`oyibona oshiqi zor bo`lmisham.

Mana bu misralar ham orifona ohanglar sifatida talqin etiladi:

Kunju uzlatga ru qilib erdim,

G`amu mehnatta xu qilib erdim

Ey xush ulkim, jamii hamdamdin

Dema hamdamki, jumla olamdin.

Forig` erdim, qanoatim bor edi,

Qone` erdim, farog`atim bor edi.

Go`shae ixtiyor qilg`on edim

G`aflat uyqusidan oyilg`on edim.

Ba`zan tarkidunyochilik ohanglari ham ko`rinadi;

Jahon eliyu jahon-barcha gar adam bo`lsa,

Adam yo`lini tutay zarra menda g`am bo`lsa¹

Bobur she`riyatining muhim qismini ruboiylari tashkil etadi. Ruboiy shoirning haqiqiy qalb tarjimoni, ruhiy oynasi. Boburga ruboiy yozish juda qulay, gashqli mashg`ulot bo`lgan. U badiha usulida ham ruboiylar yozavergan. Akademik Oybek Bobur ruboiylari haqida shunday yozgan edi: «Bobur ruboiylari uning

¹ Boburnoma T. 2001 14 - bet

poeziyasining cho'qqisidir. Umar Xayyomning ruboiylari kabi uning ruboiylari ham falsafiy fikrlarga boy, shaklan mukammal va islom dini nuqtai nazaridan mahdudligidan ancha ozoddir». «Albatta Navoiy Bobursiz Navoiy bo'lib qoldi, lekin Boburni Navoiysiz tasavvur qilish qiyin», - degan edi M.Shayxzoda. Bobur umr bo'yi Navoiydan ilhomlandi. Navoiydan badiiyat sirlarini, ma'noni ruboiyda yuksak mahorat bilan ifoda etishni o'rgandi. Navoiy g'ariblik haqida shunday yozgan:

Munglug' boshim ostidagi toshimnumu dey?

Tosh ustidagi g'arib boshimnimu dey?

Hasrat suyidin ko'zimda yoshimnimu dey?

O'lmokdin sa'broq maoshimnimu dey?

Bobur quyidagicha yozadi:

G'urbat tug'i yopqon ruhi zardimnimu dey?

Yo hajr chiqargan ohi sardimnimu dey?

Holing nedurur, bilurmisen dardimni,

Holing so'raymu, yo'qsa dardimnimu dey?¹

Navoiyning «Sadqa», «Yo'qturur» kabi ruboiylariga ham Bobur javob yozgan.

Bobur ruboiylari mavzu jihatdan rang-barang. Shoir unda hayot va inson qismatiga oid ko'p tomonlarni qamrab olgan. Ayni paytda shoir ruboiylari ko'proq hasbu hol tarzidadir. Boburning lirik qahramoni hayotsevar, oshiqlikni shohlikdan yuqori qo'yadi. Shoir sevgi tuyg'ularini harorat va samimiy tarzda bayon etadi:

Xush ulki ko'zum tushsa sening ko'zingga,

Bevosita holimni desam o'zungga.

Bermay so'zuma javob achchig'lanasen,

Qilding meni muhtoj chuchuk so'zungga.

Shoir ruboiylarining katta bir qismini hijron mavzulari tashkil etadi:

Hajring g'amidin oqibat o'lg'um, qaro ko'z

¹ Bobur Devon. T.: "Fan" 1994 15 - bet

Yuz g'ussau anduh ila bogum, qaro ko'z.

Vasling bila qilmading ilojin Bobur

Mushkulki firoqingda tirilgum, qaro ko'z.

Sertashvish, g'alvali hayot Bobur qismati edi:

Davron meni o'tkardi saru somondin

Ayirdi bir yo'la meni xonimondin

Goh boshima toj, goh baloyi ta'na

Nelarki boshimg'a kelmadi davrondin.

Bobur ruboiylarida Vatan obrazi asosiy o'rinni egallaydi. Ilm haqida yozadi.

Bobur ko'pgina tuyuq va fardlar yozdi. Ularda ham yuqoridagi mavzularni qalamga oladi: Tuyuq:

Vasldin so'z derga yo'q, Yoro manga

Hajr aro rahm ayla, kel, Yoro manga

O'qung etti ko'p yamon Yoro manga

Marhami lutfung bila Yoro manga.

Bobur mahorati yuksak shoir. Uning she'rlarida tazod, laf va nashr, o'xshatish, iyhom, mubolag'a kabi badiiy vositalar ko'p uchraydi. Tazod:

O'ltirur garchi meni g'uftoring

Tirguzur ul labi shakarboring.

Kinoya:

Tutdim sochini yuzin ko'ray deb

Tun uzun men g'arib gumroh.

Maqol:

Da'viyi ishq etib g'ayr Boburni ayb qilma

Kim men edim seningdek, sen bo'lgaysen maningdek.

Omonim:

To oq yuzung yiroq tushti

Ikki ko'zum ichra oq tushti.

Umuman, Bobur g'azallari bugunki kunda o'quvchilar tomonidan sevib o'qilmoqda. Hofizlar jo'shib kuylamoqda. Bobur kishilarni yaxshilik qilishga chaqiradi:

Bori elga yaxshilik qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q

Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.

O'zbek adabiyotida o'ziga xos boburshunoslik yuzaga keladi. Uning shaxsi va ijodi adabiyotshunos, tarixchi, tilshunos, jo'g'rofiya va boshqa soha kishilarining e'tiborini tortib keldi. J.Neru Bobur haqida o'zining «Hindistonning kashf etilishi» kitobida shunday yozadi: «Bobur dilbar shaxs, Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi».

Sho'rolar davrida Bobur ijodiga bir yoqlama yondashildi. Uni qoralashga, faoliyatini o'rganmaslikka harakat qilindi. Boburning bizgacha yetib kelgan lirik she'rlari 1917 yili Petrograd da sharqshunos olim A.Samoylovich tomonidan chop etiladi. Keyinroq ular 1931 yilda Istanbul shahrida «Milliy tatabu'lar majmuasi»da ham nashr etiladi. 1940 yili Bobur hayoti va ijodi 9-sinfda o'rganilishi Davlat dasturida belgilandi. «Adabiyot darsligi»da Navoiy, Turdi, Muqimiy qatori Bobur hayoti va ijodi ham kiritildi. 1947 yili dastur asosida VII sinflarda Bobur merosi o'rganilishi qayd etildi. Bobur asarlari «Bolalar adabiyoti»ga kiritiladi. Uning asarlari lug'ati tuziladi. Keyingi yillarda Boburning turli asarlari chop etildi. Boburshunos olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Boburning adabiy merosi ko'p qirralidir. Uning she'rlari, «Boburnoma»si alohida o'rganiladi.

Qisqacha boshqa asarlari haqida. Boburning «Muxtasar» asari aruz nazariyasi haqida. U bu asarni yozishga kirishishdan oldin Navoiy, Rashididdin Vatvot, Nosir Tusiy, Ar Roziy va boshqalarning aruz haqidagi ishlarini o'rganadi. U yozgan alifbo «Xatti Boburiy» nomi bilan mashhur. Bobur 16-17 yoshlaridan badiiy ijodiyot bilan shug'ullanadi. 1503-1504 yillarda «Xatti Boburiy», 1522 yilda «Mubayyin», 1528 yilda Xo'ja Ubaydulla Ahrorning «Volidiya» risolasini fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qiladi. She'riy yo'l bilan. Bulardan tashqari musiqaga oid «Musiqiy ilmi», «Harb ishi» asarlarini yozganligi ham aytiladi.

Boburning dinga munosabati, oilaga, farzandlariga, odob-axloq, urf-odatlarga munosabati ham alohida o'rganiladigan mavzu.

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Bobur mirzoning turli davrlarda chizilgan portret va minniatyuralari: Mirzo boburga bag'ishlangan pochta markalari mirzo bobur haykali Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatti Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalari islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi¹. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog'a-jiyanlar, amakivachchalar o'rtasida hokimiyat — ulug' bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi. Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning sertashvish yoshligi uzoqqa cho'zilmadi. 1494 yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o'rniga Farg'ona ulusining hokimi etib ko'tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog'asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga — Farg'ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o'zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg'in-barotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan qatnashgan

¹ Yoqubov X Bobur T.: 1971 65-bet

Shayboniyxonning qo'li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ldi. 1504 yili Shayboniyxon Andijonni ham qo'lga kiritgandan so'ng, Bobur janubga qarab yo'l oldi va Kobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatdi. 1505-1515 yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko'rdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. So'ng o'z mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519-1525 yillar davomida Hindistonni qo'lga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1526 yil aprel oyida Panipatda Hindiston sultoni Ibrohim Lo'di bilan va 1527 yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo'lgan janglarda Boburning qo'li baland keldi. Tarixiy ma'lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo'lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo'llaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzil-kesil o'rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Ovro'po tarixchiligida «Buyuk mo'g'ullar» nomi bilan «g'allati mashhur» bo'lgan, aslida «Boburiylar sulolasi» Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi. Bobur bu g'alabadan keyin uzoq yashamadi — 1530 yil dekabr oyida Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko'ra farzandlari uning xokini Kobulga olib kelib dafn etdilar. Biroq qisqa bir vaqt ichida Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni poklashtirish, savdo-sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish, bog'-rog'lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o'g'illari va avlodlari davrida keng miqyosga yoyildi. Hindiston san'ati va me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblari mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javaharlal Neru shunday yozgan edi: «Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa

sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi». Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari «Boburnoma»dir. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi — XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni; ikkinchi qismi — XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan voqealarni; uchinchi qismi — XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. «Boburnoma»da o'sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinarkan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan-ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. «Boburnoma»ni varaqlarkanmiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlariga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi. «Boburnoma»da keltirilgan bu tarzdagi ma'lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Hondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas.¹ Muallif «Boburnoma»da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalar haqida o'zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi. «Boburnoma» — Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri — XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'zida aks ettirgan bo'lsa ham, shu

¹ Azimjonova S. Zahiriddin Muhammad Bobur (maqolalar to'plami) T.: 1995 11 - bet

bilan birga juda ko'p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o'zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug'rofiy mavqei, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tog'lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlar, muhim tarixiy inshootlari — hindular va musulmonlarning ibodatxonalari, to'y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan shoh asardir. Shu bois «Boburnoma» tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmoqda. Uzoq yillar davomida G'arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari «Boburnoma» mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko'rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Nitsen, angliyalik olimlar J. Leyden, V. Erskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot, germaniyalik Yu. Klaynrat va A. Keyzer, frantsiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar, turkiyalik R. R. Art va N. I. Bayur va bizning davrimizdagi frantsiyalik olim Bakke Gromon, afg'onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavniyot shular jumlasidandir. «Boburnoma»ni o'rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olmoqdalar. Ma'lumki, Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o'rganish va ommalashtirishda O'zbekiston, Tojikiston, Rossiya olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N. Ilminskiy, O. Senkovskiy, M. Sale, Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev, V. Zohidov, Ya. G'ulomov, R. Nabiev, S. Azimjonova, A. Qayumov kabi olimlarning sa'y-harakatlari bilan «Boburnoma» bir necha bor rus va uzbek tillarida chop etildi, ularga so'zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining ma'naviy mulkiga aylantirildi, uning she'rlari ham bir necha bor nashr etildi. Bobur o'zbek adabiyotida o'zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarining boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to'g'ri kelgan edi. Bunday murakkabliklar in'ikosini «Boburnoma»da ko'rgan bo'lsak, shoir ruhiyatida qanday aks etgani esa, uning she'rlarida namoyon bo'ladi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija

bermagach, Bobur ruhiy qiynalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta'sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she'rlarida aks etgan. Keyinchalik o'z yurtini tark etib, Afg'oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she'riyatida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi. Tole' yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi, Har ishnikim, ayladim xatolig' bo'ldi, O'z yerin qo'yib Hind sori yuzlandim, Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi. Shu bilan birga Bobur lirikasida she'riyatning asosiy mazmuni bo'lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go'zalligi, unga cheksiz muhabbat, hijron azobi, ayriligi alamlari va visol quvonchlari nihoyat go'zal va mohirona ifoda etilgan. Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim, Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim. Sen ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz, Ayog'ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim. Bobur o'z lirik she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqirdi: Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur, Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur. Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz, Har kimki yamon bo'lsa, jazo topqusidur. Bobur lirik she'rlari va tarixiy «Boburnoma»sidan tashqari, islom qonunshunosligi va boshqa sohalarida ham asarlar yaratgan. 1522 yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan «Mubayyin» nomli asarida o'sha zamon soliq tizimini, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini, shariat bo'yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan. «Xatti Boburiy» deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan, o'zbek tili nuqtai nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U tajriba sifatida «Xatti Boburiy» alifbosida Qur'oni Karimni ko'chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag'ishlangan «Mufassal» nomli asari ham bo'lganligi ma'lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan. Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida munosib o'rin egallaydi.¹ Akademik S.Azimjonova, t.f.n. D.Valiyeva, «Ma'naviyat yulduzlari» kitobida

¹ Azimjonova S, Valiyev D. Manaviyat yulduzlari T.: 1999 33-bet

Boburning eng mashhur asari "Boburnoma"dir. U dastlab "Vaqoye'" ("Voqealar") deb atalgan. So'ngroq "Voqeoti Boburiy", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Boburiya" nomlarini oldi. Oxirida "Boburnoma" bo'lib shuhrat topdi. "Boburnoma" Zahiriddin Boburning butun umri davomidagi esdaliklaridir. U 12 yoshidan hayotining so'ngigacha bo'lgan voqealarni qayd qilib borgan va umrining oxirlarida 1525-1530- yillarda ushbu asarni yaratgan, deb taxmin qilinadi. "Boburnoma" XVI asrdayoq turli Sharq tillariga tarjima qilina boshlagan. Jumladan, 1586- yilda fors tiliga o'girilgan. Yodnoma Ovrupoga XVII asrning boshida kirib bordi.

"Boburnoma" tarixiy va badiiy asar sifatida. O'zbek nasri Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy"sidan Xojaning "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlarigacha bo'lgan katta yo'lni bosib o'tdi. Navoiy uni tarixiy, ilmiy, memuar nasri bilan yangi bosqichga ko'tardi. "Boburnoma" adabiyotimizning mana shu tajribalarini umumlashtirib, uni jahoniy miqyoslarga olib chiqqan asardir. "Boburnoma", avvalo, tarixiy asardir. Unda 1494-yildan, ya'ni Bobur taxtga chiqqanidan 1530- yilgacha umrining so'ngigacha yuz bergan voqealar o'z ifodasini topgan.¹

Bu tafsilotlar Bobur tg'ilib voyaga yetgan Movarounnahr, so'ngroq o'zi saltanat qurgan Xuroson (Kobul, G'azna, Qandahor) va Hindistonda yuz bergan voqealardir. Demak, "Boburnoma" XV asrning so'nggi, XV asrning birinchi choragida mazkur uch mintaqada kechgan voqealarni o'rganishda muhim manbadir. Muallif asarida voqealar bilangina cheklanmaydi, balki ularning ishtirokchilariga, qahramonlariga keng o'rin beradi. Natijada biz Bobur zamonida yashagan, tariximiz hamda ma'naviyatimizda muhim mavqega ega bo'lgan davlat va madaniyat arboblari bilan tanishamiz. Asarda har bir yil voqealari alohida beriladi. Dastlab o'sha yilda yuz bergan muhim voqea bayon qilinadi. Masalan, dastlabki 1494- yil voqealarini hikoya qilganda, Bobur, avvalo, o'zining "Tangri inoyati bilan Farg'ona viloyatida 12 yoshda podshoh bo'lgani" haqida xabar beradi va Farg'ona viloyati bilan tanishtiradi. So'ng voqea tafsilotiga, tog'asi va amakisi

¹ Boburnoma T.: 2001 19 - bet

Andijonga qo'shin tortib kelgani va otasining tasodif bilan fojiona halok bo'lgani voqealariga to'xtab, uning bosh ishtirokchilari, birinchi navbatda, otasi Umarshayx haqida ma'lumot beradi.

Chunonchi, uning tug'ilgan yili, nasl-nasabi, shakl-u shamoyili, xulq-atvori, yurishlari, viloyati, avlodi, xotinlari, umarosi haqida to'xtaydi. So'ng voqeaning ikkinchi ishtirokchisi shu 1494 - yildagi urushdan qaytishda yo'lda O'ratepada kasallanib vafot etgan amakisi Sulton Ahmad haqida xuddi o'sha tarzda ma'lumot keltiradi. Shunday qilib, kitobda Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo, Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud kabi o'nlab taxt egalari, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak naqqosh, Husayn Udiy singari adabiyot va san'at arboblari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Bobur butun umri jang-u jadallarda kechishiga qaramay, tabiatan nihoyatda ziyrak, sinchkov, g'oyat fahmli va idrokli, hamma narsaga qiziquvchan bir zot edi. U qayerga bormasin, o'sha yerning jug'rofiy o'rnidan tortib, o'simlik va hayvonot dunyosigacha, qish-u yozining ob-havosidan, elining tili-yu urf-udumigacha hamma hammasi bilan qiziqadi va yozib qoldiradi. Bobur nima va kim haqda yozmasin, g'oyat samimiydir. O'zining quvonchini ham, g'amini ham hech kimdan yashirmay, ro'y-rost aytadi. Do'sti haqida ham, dushmani haqida ham ko'nglidagini so'zlaydi.

Bobur shaxsi tasviri. "Boburnoma" muallifning o'ziga xos tarjimai holi, aqlini tanigandan boshlab umrining oxirigacha kechgan hayoti solnomasidir. Muhimi, asarda eng og'ir damlarda ham o'zining tanti, jo'mard, mehribon insoniy fazilatlarini saqlab qola olgan muallif timsoli turadi. Bobur vataniga muhabbatini hayotining so'ngigacha asraydi. 1528- yili Bobur Andijonga, Xo'jakalonga yozadi: "Bizni ehtimomimiz ol sorilar bormoqqa behad va beg'oyatdir. Hinduston ishlari ham bir nav' somon topib keladi... Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay... Bu fursatta bir qovun keltirib erdilar, kesib yegach, g'arib ta'sir qildi, tamom yig'lab yedim". Bobur asarida ota va o'g'il, shoh va shahzoda munosabatlariga ham befarq qaramagan. Taxtni egallash uchun Ulug'bekday donishmand otani qatl qildirgan Abdullatifni qattiq qoralaydi. Boburning o'zi esa

farzandlariga ham mehribonlik va ham talabchanlikning ajoyib namunalarini ko'rsatadi. Chunonchi, 1528- yili Numoyun o'g'il ko'rganida, Bobur farzandini tabriklaydi. Murabbiy va ustoz sifatida unga otalik nasihatlarini beradi. Humoyunga xatlaridagi imlo xatolaridan tortib, yurish-turishigacha yo'l ko'rsatib, mehribonlik qiladi: "...xatlaringda yolg'uzluq, yolg'uzluqim debsen, podshohliqta aybdur... Podshohliq bila yolg'uzluq rost kelmas... Xatingni xud tashvish bila o'qisa bo'ladur vale asru mug'laqtur ... Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas. Ittifotni "to" bilan bitibsen, Qulunjni "yo" bilan bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qisa bo'ladur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mahfum bo'lmaydur... Takalluf qilay deysen, ol jihattin mug'laq bo'ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham sanga tashvish ozroq bo'lur, ham o'qug'uchig'a". 1529- yili Numoyun kasal bo'lganida, uni Badaxshondan Dehliga, Bobur yoniga yuboradilar. "Boburnoma"da yoziladi: "...tabiblar har nesha doru-darmon berdilar, yaxshi bo'lmadi. Mir Abulqosimkim, ulug' kishi erdi, arzg'a yetkurdikim, ushmundoq dardlarg'a darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki tengri taolo sihat bergay. Mening ko'nglumga keldikim, Muhammad Humoyunning mendin o'zga tasadduq bo'layin, xudoy qabul qilsun. Xoja Xalifa, o'zga muqarrablardin arzg'a tegurdilarkim, Muhammad Numoyun sihat topar, siz bu so'zi neshun tilingizga kelturasiz. G'araz budurkim, dunyo molidin yaxshisi tasadduq qilmoq kerak. Bas, o'shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub erdi, Muhammad Humoyunga inoyat qilib erdingiz, tasadduq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning evazig'a nechuk bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkul bo'lubtur. Va andin o'tubturkim, men aning betoqatlig'ig'a toqat kelturg'aymen. O'shal holatga kirib, ush qatla boshidin o'rgulub, dedimkim, men ko'tardim, har ne darding bor.

O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lub qopti. Men noxush bo'lub yiqildim. A'yon davlat va arkoni mamlakatni chorlab, bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'a va valiahdlig'ig'a nasb qildim. Va taxtni anga topshurdum".Bobur tirikligida taxtni vorisiga topshirgan kamdan-kam hukmdorlar sirasidan edi.

Bobur - madaniyat arbobi.

"Boburnoma"da Boburning ilk she'r mashqlaridan tortib, yirik asarlarigacha yozilish tarixi, ular bilan bog'liq voqealar haqida ma'lumot berilgan. Bobur o'z asarining „909 (1503-1504)- yil voqealari" degan sahifasida: "Ushbu mahallarda "Boburiy xat"ni ixtiro qildim" deb yozadi. Muallif 1520-1521- yillarda musiqa bilan shug'ullangani haqida ma'lumot beradi. Bobur vatandan uzoqda ham ona tili ravnaqini o'yladi. U turkiy tildagi ijodni rag'batlantiradi. Tilni sof saqlash ushun kurashadi. Bu ishlarni o'zga tillarni kamsitmagan holda turli beozor shakllarda amalga oshiradi. Masalan, "Boburnoma"da 1519- yil voqealari bayonida shunday bir lavha bor: "Chahorshanba kuni... mutoyaba jihatidan deyildikim, har kim sortcha aytsa, bir ayog' (qadah) ichsun, bu jihattin ko'p kishi ayog' ichti. Sunna vaqtida shaman o'rtasidag'i tolur ustida o'lturuldi. Deyildikim, har kishi turkcha aytsa, bir ayog' ichsun. Bunda ham g'alaba (ko'p) kishi ayog' ichti". Ko'rinadiki, sortcha gapirganlarga jazo sifatida, turkcha so'zlaganlarga siylov sifatida bir ayog'dan ichkilik berilgan. Ona tilida so'zlashganlar shu tariqa ham rag'batlantirilgan.

Bobur Navoiy haqida. Bobur Navoiy bilan uchrashmagan bo'lsada, lekin yoshligidan uning shaxsiga va ijodiga katta muhabbat bilan qaragan. Chunki Bobur tug'ilgan 1483- yilda Navoiy o'z "Xamsa"sini yozishga kirishgan, taqdir 1494- yili taxt berib, 1498- yili Samarqandday muqaddas poytaxtni qo'lga kiritganida ulug' shoirning "Xazoyin ul-maoniy"si dovrug'i butun turkiy dunyoga yoyilgan edi. 1500-1501- yil voqealarini bayon qilar ekan, Bobur Navoiy bilan xat olishganini, buyuk shoirga ilk she'rlaridan Yuborganini yozgan edi: "Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg'onda, Alisherbek tirik erdi. Bir navbat manga kitobati (xati) ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim, orqasida turki bayt aytib, bitib yiborib edim. Javob kelguncha tafriqa (bo'linish) va g'avg'o bo'ldi". Ayni paytda, Navoiy ham temuriyodalarni sinchliklab kuzatib borgan ko'rinadi. Aks holda, u Samarqandga, 15 yoshli Boburga maktub yo'llamagan bo'lardi. Bobur "Boburnoma"da Navoiy haqida ma'lumot berar ekan, quyidagi masalalarga to'xtaladi:

Bobur sarkarda. Bobur yoshligidan jang-u jadallar ichida o'sdi. Bu hol uni har bir qadamini o'ylab bosishga, uning natijasini qattiq tahlildan o'tkazishga o'rgatdi. Bobur harbiy yurishlarda katta tajriba orttirdi, bu haqda "Narb ishi" degan maxsus asar yozdi. "Boburnoma"da Boburning sarkardalik faoliyati yoritilgan lavhalar juda ko'p. Jumladan, Hindistonning olinishi, 1526- yilgi Panipat jangi shunday tasvirlanadi:

"tarix to'qqiz yuz o'ndakim (1504), Qobul viloyati musaxxar bo'ldi (zabt etildi), ul tarixdan bu tarixqacha hamisha Hinduston havasi qilinur edi... ..yetti-sakkiz yilda (1519-1526) besh navbat Hindustonga cherik (qo'shin) torttuk... ..bu tarixqacha ush kishi Hinduston viloyatiga musallat (ega) bo'lub, saltanat qilibturlar. Bir Sulton Mahmud G'oziy (G'aznaviy). Ikkinchi Sulton Shahobiddin G'uriy... ushinshi mendurmen, vale mening ishim ul podshohlarning ishiga o'xshamas, ne uchunkim Sulton Mahmud Hindustonnikim musaxxar qildi. Xuroson taxti aning taxti zabtida edi va Xorazm va Dorul Murz salotini (sultonlari) anga mute' va munqod edi. Samarqand podshohi aning zeri dasti edi. Cheriki ikki lak (200 ming) bo'lmasa, xud bir lakta ne so'z edi. Yana g'animplari rojalar edi. Tamom Hindiston bir podshohda emas edi. Nar roja bir viloyatga o'z boshicha podshohlik qilur edi... Avval navbatkim Behraga kelduk, bir ming besh yuz, nihoyati ikki ming kishi bo'lg'ay edi. Beshinchi navbatkim, kelib Sulton Ibrohimni bosib Hinduston mamolikini fath qildim, hesh qachon Hinduston yurushida muncha cherik bila kelilmaydur edi. Navkar va savdar va chokar jami' cherik bila bo'lg'onlar o'n ikki ming kishi qalamg'a keldi. Manga taalluq viloyat Badaxshon va Qunduz va Kobul va Qandahor edi, vale bu viloyatlardin mu'taddun bir naf' yo'q edi... Yana jami' Movarounnabr viloyatlari o'zbek xavonin (xonlari) va salotinining tasarrufida edi, yuz mingga yaqin cheriklari bor edi, qadimiy dushman edi. Sulton Ibrohimning (Hindiston hukmdori) viloyat hisobi bila besh lak cheriki bo'lmoq kerak edi. Hozir cherikini bir lak chenarlar (taxmin qilarlar) edi. O'zining va umarosining ming chog'liq fili bor derlar edi.. Vu hol va bu quvvat bila tavakkul qilib, o'zbekdek yuz

ming qari yog'i (dushman)ni orqada qo'yub Sulton Ibrohimdek qalin cheriklik vase' (keng) mulkluk podshoh bila ro'baro' bo'lduk..."¹

"...vatandin ikki-uch oychaliq yo'l kelilib edi. ...Jami' beklarni va yigitlarni chorlab dedimkim: Beklar va yigitlar!.. har kimki, hayot majlisig'a kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidur va har kishikim, tiriklik manzilig'a kelubtur, oxir dunyo g'amxonasidin kechg'usidur. Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq. ... Tengri taolo bu nav' saodatni bizga nasib qilibtur va mundog' davlatni bizga qariyb aylabtur. O'lgan shahid, o'lturgan g'ozi. Varcha tengrining kalomi bilan ont ichmak kerakkim, har kim bu qitol (jang)din yuz yondirur (o'zini olib qochish) xayol qilmagay, to badandin joni ayrilmag'uncha, bu muhoraba va muqotaladin ayrilmag'ay. ... Ulug'-kichik borchas mus'hafni ilikka olib, ushbu mazmun bila ahd va shart qildilar".

Boburning voqea-hodisalarga, do'st-u dushmanlarga o'z munosabatini ochiq ifodalashi, o'zining xatti-harakatlariga tanqidiy nazar bilan qarashi, asarning ilmiy ahamiyatini oshirgan va muallif shaxsiga alohida joziba bag'ishlagan. "Boburnoma" turk nasri taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Buning yorqin namunasi Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarai turk", "Shajarai tarokima" asarlaridir. "Boburnoma"ning tasvir va bayon usuli tarjimalar orqali boshqa adabiyotlarga ham o'tdi.

Hindiston tarixini yoritishda esa, mutaxassislar fikriclla, hali ham buyuk bobomiz Beruniyning "Hindiston"idan keyingi muhim asar "Boburnoma" turibdi. Shoir, olim va shoh Boburning ijodi, faoliyati mana shu xususiyatlariga ko'ra ardoqlanib keladi.

«BOBURNOMA» - jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan (tahmiman 1518/19 - 1530). «Boburiya», «Voqeoti Bobur», «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Tabaqoti Boburiy», «Tavorixi Boburiy» kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa «Vaqoye» va «Tarix» degan

¹ Boburnoma T 2001 3 – bet

nomlarni ishlatgan. «Boburnoma»da 1494 - 1529 yillarda Markaziy Osiyo, Afgʻoniston va Hindistonda sodir boʻlgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil oʻta aniqlik bilan bayon qilingan boʻlib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bogʻliqdir.

«Boburnoma» oʻzida bayon qilingan voqealar jarayoniga koʻra 3 qismga: Boburnning Movarounnahr (1494 - 1504), Afgʻoniston (1504- 1524) va Hindiston (1524- 1530)dagi hukmdorlik davriga boʻlinadi. Birinchi qismda Boburning otasi - temuriylarning Fargʻona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461 - 1494) xususida hamda Boburning Fargʻona taxtiga oʻtirishi (1494 yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida oʻz ulusidan mahrum boʻlishi (15-asr 90-yillari), Samarqand uchun Shayboniylarga qarshi olib borgan jangu jadallarining (1497- 1501) behuda ketishi, va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor togʻlari orqali tahmiman 250 navkar bilan Afgʻonistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, soʻng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishgʻol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik koʻra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Loʻdiyini magʻlub etib (Panipat janglari), Shimoliy Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi maʼlumotlardan iborat.

«Boburnoma»da keltirilgan¹ barcha maʼlumotlar, xususan Fargʻona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chagʻoniyon va Shimoliy Afgʻonistonning XV-asrning 80 - 90-yillari va XVI-asrning 1-choragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar oʻzining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, asar muallifning muayyan tarixiy voqea haqida hamda oʻzaro dushmanlik qilgan temuriylar - Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysungʻur Mirzo, Sulton Husayn va boshqalarning xulq-atvori, tabiati xususida

¹ Oʻsha manba 40 – bet

bildirgan fikr-mulohazalari bilan ham ahamiyatlidir. Asarda ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta'limoti, tilshunoslik, jug'rofiya, tabiatshunoslik, ma'danshunoslik, dehqonchilik, bog'dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o'z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yoqotmagan ma'lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Boburning o'zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O'sha davrdagi qo'shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol-yarog' turlari, qo'rg'onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda asarda ko'plab harbiy-ma'muriy istilohlar (tuman, ulus, ko'kaltosh, eshikog'a, axtachi, tarxon, shig'ovul, sharbatchi (sharbatdor), mubashshir, tug'chi, miroxur, rikobdor, dorug'a, murchil, manjaniq, o'ron va boshqalar) ham uchraydi. Shuningdek, «Boburnomada temuriylar qo'shinining tuzilishi, harbiy san'ati va boshqalar haqida ham noyob ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, Movarounnahr, Afg'oniston, Xuroson va Hindiston o'tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasb-hunari, urf-odatlar, rasm-rusumlari, an'anaviy tadbir-marosimlari, shuningdek o'sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma'lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg'ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar-viloyatlarning jug'rofiy-ma'muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, daryo va suv havzalari, cho'l-adirlari, tog'-sahrolari, bog'urog'lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o'simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma'lumotlar beriladi. Xususan XV XVI asrlarda Turkiston viloyatida yashagan qora qo'yliq (qo'yunluk) qabilasining hamda Movarounnahrdagi turkmo'g'ul qabilalarining urf-odatlar, harbiy mahoratlari haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa ilmiy jihatdan g'oyatda qimmatli bo'lib, ular o'zbek, qozoq, qirg'iz va boshqa turkiyzabon xalqlar etnik tarixini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. «Boburnoma» da Farg'ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O'ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag'oniyon, Badaxshon, Qobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan g'oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo'lib, muallif o'zi yurgan yo'llar, o'zi bo'lgan shahar va qishloqlarni g'oyat darajada aniq tasvirlagan.

«Boburnoma»da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod kabi ko`plab san`atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho beriladi. Jumladan, Alisher Navoiy haqida shunday deyiladi: V«Alisherbek naziri yo`q kishi edi. Turkiy til bila to she`r aytibturlar,- hech kim oncha ko`p va xo`b aytqon emas».

«Boburnoma» XV-asr o`zbek badiiy nasrining yorqin namunasi sifatida sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, an`anaviy lirik chekinishlarga boy. Nasriy matn ichida keltirilgan xalq maqol-matallari, iboralari, ibratli o`g`itlar, she`riy parchalar uning badiiyligini yanada oshiradi, o`ziga xos joziba bag`ishlaydi.

«Boburnoma» XVI-asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko`p tillari - ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha martalab tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg`oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o`nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida V«BoburnomaV»ning insoniyat yaratgan o`lmas obidalar qatorida alohida o`rinda turishi ta`kidlanadi. «Boburnoma»ning jahonga mashhur bo`lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo`ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to`liq nashrini (ingliz tilida) 1826 yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshirdi. F. Talbot esa mazkur nashr asosida 2 marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921 yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij «Boburnoma»ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o`zida V«BoburnomaV» tarjimalari 9 marta nashr etildi.

Keyingi yillarda «Boburnoma»ning professor V. Takston tomonidan AQSHda (Kembrij shahri Garvard universiteti, 1993) hamda ikki jild hajmda, mukammal so`zlik, ko`rsatkich va sharh-izohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995 - 1996) ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi.

Ma`lumki, «Boburnoma» qo`lyozmalari matnida ba`zi yillar (1504- 1505, 1509- 1518, 1520- 1524) tafsiloti uchramaydi, 1508 va 1520 yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu uzilish bo`lgan o`rinlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ma`lum darajada tiklaganlar. «Boburnoma» forschaga

(1586), undan parchalar Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A. Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pave de Kurteyl tomonidan to'la holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. «Boburnoma»ni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afg'oniston (Abdulxay Habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R. R. Arat va N. I. Bayur) kabi mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslari (N. I. Pantusov, S. I. Polyakov, V. Vyatkin) ham «Boburnoma» dan parchalarni tarjima qilganlar. N. I. Ilminskiy «Boburnoma»ni Qozonda nashr ettirdi (1857).

«Boburnoma»ni hamda Boburning she'riy merosini o'rganishda O'zbekistonlik olimlar ham salmoqli hissa qo'shdilar. Professor Fitrat tomonidan tuzilgan «O'zbek adabiyoti namunalari» xrestomatiyasida «Boburnoma»dan parchalar, Boburning 31 g'azali, 2 masnaviy va 28 ruboiysi berilgan. M. Sale «Boburnoma»ni rus tiliga to'la tarjima qilib, 3 marta (1958, 1982, 1993) nashr ettirdi. P. Shamsiyev va S. Mirzayevlar tomonidan «Boburnoma»ning ikki jildli (1948) va bir jildli (1960) nashri chop etildi. 1956 - 1966 yillarda Boburning uch jildli tanlangan asarlari chop etilib, unga Boburnning she'riy devoni (1-jild) va «Boburnoma» (2- 3-jildlar) kirgan Bobur va uning ilmiy merosini o'rganishga S. Azimjonova katta ulush qo'shgan. «Boburnoma»ning M. Sale tomonidan qilingan tarjimalari uning batafsil so'z boshisi va tahriri ostida nashr etilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur¹ asos solgan davlat (1526-1584). 1517 y.dan boshlab Dehli sultonligitsa ichki nizolar avj olib, sultonlik inqiroega yuz tutdi, mahalliy hokimlar markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'ydi. Lohurda Davlatxon, Dexlida Ibrohim Lo'diy, Mevarda Rano Sango mustaqillik e'lon qildilar. Bobur bunda foydalanib 1519 va 1524 y.lari Kobuldan Panjobga yurish qildi va katta o'ljalari olib qaytdi. 1525 y. Rano Sango o'z raqibi Ibrohim Lo'diyni yengish va shu tariqa Shim. Hindistonni qo'lga kiritish maqsadida Bobur b-n ittifoq tuzdi. Bobur yana Hindistonga yurib, 1525 y. kech kuzida Panjobni bo'ysundirdi. 1526

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi

y.ning apr. Oyida esa Panipat yonida bo‘lgan jangda (q.Panipat janglari) Ibrohim Lo‘diyni yengib, Agra va Dexlini egalladi.Bobur ilgarigi fotixlar singari (mas,Mahmud G‘aznaviy, Amir Temur vab.)Hindistonni tashlab chiqmay, shu yerda qolishga qaror qildi. U 1527 y.ning mart oyida Sikri yonida bo‘lgan jangda Rano Sangoni ham yengib, butun Shim. Hindistonni bo‘ysundirdi. Bobur 1530 y. dek. oyida vafot etdi. U o‘zi fath etgan mamlakatlarni betob kunlari o‘g‘illariga: Xindistonni to‘ng‘ich o‘g‘li Humoyunta, Panjobni Komron Mirzota,Qobul va Qandahorni Askariy Mirzoga, Badaxshonni Hindol Mirzota taqsimlab berdi. Humoyun o‘z mulkini kengaytirish maqsadida 1534 y. Gujarot va Bixarga yurish qiddi. Humoyun afg‘on sur qabilasining nufuzli yetakchilaridan Sherxon bilan Chousa va Qunuj (Kanauij) da bo‘lgan janglarda mag‘lubiyatga uchrab, dastlab Sind va Qandahorga, u yerdan esa Eronga shoh Tahmasp huzuriga qochdi. Shunday qilib, Shim. Hindiston 1555 y.gacha Sherxon va uning avlodi tasarrufida qoldi. 1555 y. Humoyun chig‘atoy, afg‘on, eron, turkman va ko‘chmanchi o‘zbek qabilalaridan katta qo‘shin to‘plab, Hindistonga yurish qildi, o‘sha yilning iyun oyida Skandarshoh Surni yengib, Dexlini egalladi. Lekin oradan bir yil o‘tgach, Humoyun saroy kutubxonasi zinapoyasidan yiqilib, fojiona halok bo‘ldi. 1556 y. taxtga uning hali balog‘atga yetmagan ugli Akbar o‘tqazildi.

Akbar (1542—1605) B. d. hukmronligiga qarshi bosh ko‘targan Xemu va Skandar Sur ustidan g‘alaba qozondi, keyinchalik B.d.ni birmunchakengaytirishga muvaffaq bo‘ldi. Akbar davrida Hindukushdan jan.dagi Godavari daryosigacha bo‘lgan yerlar B. d. tasarrufiga o‘tdi. Akbar markaziy davlat apparatini mustahkamlashga qaratilgan bir qancha islohotlar o‘tkazdi. Yer solig‘i, davlatni boshqarish tartibi xususidagi qonunlarni ishlab chiqdi. Birinchi qonunga binoan natural soliq pul solig‘i bilan almashtirildi. Bu tadbir davlatning moliyaviy ahvolini yaxshiladi. Akbar jizya, ziyoratchilardan olinadigan soliqni, soliq to‘plovchilarning maoshi (dorug‘a)ni, chopar hamda amaldorlar uchun to‘lanadigan yig‘im (qo‘nalg‘a)ni, bozordan yig‘iladigan bir qancha soliq va jarimalarni bekor qildi. Akbar zamonida ichki va tashqi savdo rivojlandi. Dengiz orqali olib boriladigan savdoda Gujarot va Bengaliya alohida o‘rin egalladi. Savdo

yo‘llarida karvonsaroy va quduklar bunyod etilishi savdoni rivojlantirdi. Akbar 16-a.ning 60—70-y.larida bir qator islohotlar o‘tkazdi. Podshoh hokimi mutlaq hisoblanib, uning huzurida maxsus vakillik mahkamasi tashkil etildi. Bu islohot mamlakatni birlashtirish va davlatni markazlashtirishda muhim rol o‘ynadi. Akbarning o‘g‘li Jahongirshoh(1605—27) otasi davrida joriy etilgan feodal tartiblarni mustahkamladi, B. d.ni kengaytirish siyosatini davom ettirdi. Jahongir 1614 y. Mevarni, 1615 y. Assomni va 1621 y. Kashmirdagi kichik Kishtvora navobligini bosib oldi. Bangola viloyatidagi afg‘on qabilalarining g‘alayonlarini bartaraf etib, ularni bo‘ysundirdi. 1624 y.dan boshlab hokimiyat uning o‘qimishli va tadbirkor xotini Hyp Jahon qo‘liga o‘tdi. Xuddi shu yillardan boshlab mamlakatda

ichki kurash yanada kuchayib ketdi. Bu kurashni uning o‘g‘illari Xurram (Shoh Jahon) va Xisrav Mirzo boshladilar. 1622 y. Xurram otasiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib, oxiri taslim bo‘ldi. U faqat otasining vafotidan (1627) keyingina Shoh Jahon nomi bilan taxtga o‘tirdi.

II bob. Boburiylar davlatining tashkil topishi va davlatchilik tarixidagi o`rni

1517-yildan boshlab Dehli sultonligida ichki nizolar avj olib, sultonlik inqirozga yuz tutdi, mahalliy hokimlar markaziy hukumatga bo`ysunmay qo`ydi. Lohurda Davlatxon, Dehlida Ibrohim Lo`diy, Mevarda Rano Sango mustaqillik e`lon qildilar. Bobur bundan foydalanib 1519 va 1524-yillari Kobuldan Panjobga yurish qildi va katta o`ljalar olib qaytdi. 1525-yil Rano Sango o`z raqibi Ibrohim Lo`diyning yengish va shu tariqa Shimoliy Hindistonni qo`lga kiritish maqsadida Bobur bilan ittifoq tuzdi. Bobur yana Hindistonga yurib, 1525-yil kech kuzida Panjobni bo`ysundirdi. 1526-yilning aprel oyida esa Panipat yonida bo`lgan jangda (q. Panipat janglari) Ibrohim Lo`diyning yengib, Agra va Dehlini egalladi. Bobur ilgari fotixlar singari (masalan Mahmud G`aznaviy, Amir Temur va boshqa) Hindistonni tashlab chiqmay, shu yerda qolishga qaror qildi. U 1527-yilning mart oyida Sikri yonida bo`lgan jangda Rano Sangoni ham yengib, butun Shimoliy Hindistonni bo`ysundirdi. Bobur 1530-yil dekabr oyida vafot etdi. U o`zi fath etgan mamlakatlarni betob kunlari o`g`illariga: Xindistonni to`ng`ich o`g`li Humoyunga, Panjobni Komron Mirzoga, Kobul va Qandahorni Askariy Mirzoga, Badaxshonni Hindol Mirzota taqsimlab berdi. Humoyun o`z mulkini kengaytirish maqsadida 1534-yil Gujarot va Biharga yurish qiddi. Humoyun afg`on sur qabilasining nufuzli yetakchilaridan Sherxon bilan Chousa va Qunuj (Kanaui)da bo`lgan janglarda mag`lubiyatga uchrab, dastlab Sind va Qandahorga, u yerdan esa Eronga shoh Tahmasp huzuriga qochdi. Shunday qilib, Shimoliy Hindiston 1555-yilgacha Sherxon va uning avlodi tasarrufida qoldi.<sup>1</sup> 1555-yil Humoyun chig`atoy, afg`on, eron, turkman va ko`chmanchi o`zbek qabilalaridan katta qo`shin to`plab, Hindistonga yurish qildi, o`sha yilning iyun oyida Surni yengib, Dehlini egalladi. Lekin oradan bir yil o`tgach, Humoyun saroy kutubxonasi zinapoyasidan yiqilib, fojiona halok bo`ldi. 1556-yil taxtga uning hali balog`atga yetmagan ugli Akbar o`tqazildi. Boburiylar davlati hukmronligiga qarshi bosh ko`targan Xemu va

¹ Azimjonova S. Zahiriddin Muhammad Bobur (maqolalar to`plami) T.: 1995 17 - bet

Skandar Sur ustidan g'alaba qozondi, keyinchalik Boburiylar davlatini birmuncha kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. Akbar davrida Hindukushdan jan.dagi Godavari daryosigacha bo'lgan yerlar Boburiylar davlati tasarrufiga o'tdi. Akbar markaziy davlat apparatini mustahkamlashga qaratilgan bir qancha islohotlar o'tkazdi. Yer solig'i, davlatni boshqarish tartibi xususidagi qonunlarni ishlab chiqdi. Birinchi qonunga binoan natural soliq pul solig'i bilan almashtirildi. Bu tadbir davlatning moliyaviy ahvolini yaxshiladi. Akbar jizya, ziyoratchilardan olinadigan soliqni, soliq to'plovchilarning maoshi (dorug'a)ni, chopar hamda amaldorlar uchun to'lanadigan yig'im (qo'nalg'a)ni, bozordan yig'iladigan bir qancha soliq va jarimalarni bekor qildi. Akbar zamonida ichki va tashqi savdo rivojlandi. Dengiz orqali olib boriladigan savdoda Gujarot va Bengaliya alohida o'rin egalladi. Savdo yo'llarida karvonsaroy va quduklar bunyod etilishi savdoni rivojlantirdi. Akbar XVI asrning 60—70-yillarida bir qator islohotlar o'tkazdi. Podshoh hokimi mutlaq hisoblanib, uning huzurida maxsus vakillik mahkamasi tashkil etildi. Bu islohot mamlakatni birlashtirish va davlatni markazlashtirishda muhim rol o'ynadi. Akbarning o'g'li Jahongirshoh (1605—27) otasi davrida joriy etilgan feodal tartiblarni mustahkamladi, Boburiylar davlatini kengaytirish siyosatini davom ettirdi. Jahongir 1614-yil Mevarni, 1615-yil Assomni va 1621-yil Kashmirdagi kichik Kishtvora navobligini bosib oldi. Bangola viloyatidagi afg'on qabilalarining g'alayonlarini bartaraf etib, ularni bo'ysundirdi. 1624-yildan boshlab hokimiyat uning o'qimishli va tadbirkor xotini Shoh Jahon qo'liga o'tdi. Xuddi shu yillardan boshlab mamlakatda ichki kurash yanada kuchayib ketdi. Bu kurashni uning o'g'illari Xurram (Shoh Jahon) va Hisrav Mirzo boshladilar. 1622-yil Xurram otasiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, oxiri taslim bo'ldi. U faqat otasining vafotidan (1627 keyingina Shoh Jahon nomi bilan taxtga o'tirdi. Shoh Jahon (1627—58) ayrim mahalliy mulkdorlar (Bundel hokimi Jujhar, Dekan hokimi Xon Jahon Lo'diy va boshqa)ning qarshiligiga duch keldi va ularning isyonlarini bostirdi, 1632—1636-yillarda Dekan hokimliklarini bo'ysundirdi, 1638-yilda Qandahorni egalladi. Boburiylar davlati.ning eng mashhur hukmdorlaridan yana biri Avrangzeb Olamgirdir (1618—1707). U Dekan va Bijapurni bo'ysundirdi. Akbar,

Shoh Jahon va Avrangzeb hukmronligi davrida Boburiylar davlati taraqqiy etdi. Mamlakat birmuncha markazlashdi, iqtisod va madaniy hayot o'sdi. Avrangzeb hukmronligining ohirgi yillarida Dekanda marathalar, Shimolida afg'on qabilalari, Panjobda sikhlari, Mevar va Marvarda rajputlar qo'zg'olonlari tufayli Boburiylar davlati og'ir ahvolga tushib qoldi. Avrangzeb vafotidan so'ng ichki kurashlar kuchaydi. Undan tashqari, yevropaliklar (Portugaliya, Daniya Gollandiya va Angliya)ning bosqinchilik siyosati boshlandi. Natijada mamlakat mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketdi. Boburiylar davlati 1858-yil ingliz mustamlakachilari tomonidan butunlay tugatildi. Boburiylar davlati mahalliy xalqlar madaniyati tarixida progressiv rol o'ynagan; bu yerda obodonchilik va madaniy turmushga katta e'tibor berilgan; ko'plab sug'orish inshootlari qurilgan, yangi yerlar o'zlashtirilgan, bog'roqlar bunyod etilgan, shaharsozlik, hunarmandchilik (qog'oz i.ch., zargarlik, kulolchilik, temirchilik, qandolatpazlik, to'quvchilik va boshqa) taraqqiy etgan. Tarixiy hujjatlarda gazlamaning 100 ga yaqin nomi keltirilganligi mamlakatda to'quvchilik keng ko'lamda taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Boburiylar mahalliy xalq bilan tobora yaqinlashish siyosatini olib borganlar, idora qilishda mahalliy urfodatlariga rioya etganlar. Akbar musulmon bo'lmagan xalqlardan olinadigan jizya solig'ini bekor qilgan, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi qabila hamda xalqlarni kelishtirish maqsadida turli dinlar aqidalari majmuidan iborat umumiy "Dini ilohiy" joriy etishga harakat qilgan. Boburiylar davlati bilan Movarounnahrda davlatlar o'rtasida dastlabki rasmiy madaniy aloqalar XVI asr 30-yillardan boshlangan bo'lsada, Bobur Hindistonni zabt etgan vaqtdayoq ko'plab shoir, sozanda, bastakor, xonanda, miniatyurachi rassomlarni olib ketgan edi.¹ XVI asr 2-yarmida shayboniylardan Abdullaxon II Akbar saroyiga bir qancha miniatyurachi rassomlar (xususan, Muhammad Murod Samarqandiy)ni, 1585-yil o'z elchilari (shoir Mushfiqiy va boshqa) ni yuborgan. 1613-yil Buxoro xoni Imomqulixon Jahongirshoh huzuriga, Jahongirshoh ham o'z navbatida Buxoroga o'z elchilari (bular orasida hindistonlik mashhur hakim Hoziq ham bo'lgan) ni

¹ Azimjonova S. Zahiriddin Muhammad Bobur (maqolalar to'plami) T.: 1995 30 - bet

yo'llagan. 1660-yil Boburiylar davlatiga ashtarxoniylardan Abdulazizxon (1645—80)ning , 1685-yil Buxoroga Avrangzebning elchilari borgan. Movarounnahrda elchilar hay'atida yuborilgan adabiyot va san'at ahllaridan tashqari turli sabablar bilan Boburiylar davlatiga kelib yashab qolgan shoirlar, me'mor va miniatyura ustalari ko'p bo'lgan. Me'morchilik, san'at, adabiyot Boburiylar davlatida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, madaniy aloqalarning kengayishi natijasida ilmfan, adabiyot, san'at, me'morlik taraqqiy etgan, astronomiya yuksalgan. Dehli, Jaypur va boshqa shaharlarda rasadxonalar qurilgan. Adabiyotda xalq diniy-sektantlik harakati g'oyalari (turli diniy e'tiqoddagi xalqlar tengligi va boshqa)ni targ'ib qiluvchi "Bhakti" poeziyasi rivojlangan. Mazkur oqimning yirik namoyandalardan biri Tulsidas (1532—1624) mashhur "Ramayana" dostonini yaratgan. Ayni vaqtda Shimoliy Hindistonda forsiy va turkiy tillarda, Markaziy Hindiston (Dekan) da urdu tilida saroy poeziyasi taraqqiy etgan, qator nasriy va nazmiy asarlar (Bobur, Bayramxon, Omuliy, Soib Tabriziy, Zebunniso, Bedil, Mirzo G'olib va boshqaning asarlari) yaratilgan. Ijodda "hindmusulmon uslubi" (shoirlar o'z asarlarida Hindiston tabiat manzaralarini, voqeahodisalarini tasvirlasalarda, forstojik she'riyatining an'anaviy shakl va obrazlaridan foydalanganlar) vujudga kelgan (Fayziy, "Nal va Daman"; Bedil, "Komde va Mudan" va boshqa), mahalliy xalqlar bilan musulmon aholi o'rtasidagi o'zaro do'stlik, muhabbat goyalari tarannum etilgan. Adabiyotshunoslikka doir muhim asarlar (Bobur, "Aruz risolasi", Alouddavla ibn Yahyo Sayfiy Husayniy, "Nafis ulmaosiroti"; Husayn Alixon Azimobodiy, "Nashtari ishq"; Shohnavozxon, "Maosir ulumaro"; Badriddin Kashmiriy, "Ravzat ar-rizvon va haqiqat al-g'ilmon" va boshqa) yuzaga kelgan. Movarounnahr, Hindiston va Afg'oniston tarixi, jug'rofiyasi, madaniy aloqalariga bag'ishlangan asarlar (Bobur, "Boburnoma"; Abulfazl Allomiy, "Tarixi Akbarshohiy"; Nizomuddin Axmad, "Tabaqoti Akbariy"; Mirzo Salim Jahongir, "Tuzuki Jahongiriy"; Jahongirshoh, "Jahongirnama"; Gulbadanbegim, "Humoyunnoma"; Badovuniy, "Muntaxab uttavorix"; Muhammad Mustaidxon Soqiy, "Maosiri Olamgiri" va boshqa) yaratildi. Hind, arab va turkiy xalqlar badiiy va ilmiy adabiyoti nodir yodgorliklari

tarjimasiga ham katta e'tibor berildi. Xususan, geometriyaga doir "Lilavatiy", "Atharvaveda" asarlari, "Mahabharata", "Ramayana" xalq dostonlari (sanskritchadan), Yoqut alHamaviynit jug'rofiyaga oid "Mu'jam ulbuldon" asari (arabchadan), Kamoliddin Dabiriyning "Hayot ulhayvon" va Boburning "Boburnoma"si (eski o'zbek tilidan fors tiliga) tarjima qilingan. XVI—XVIII asrlar mobaynida boburiylar tomonidan bunyod etilgan qator monumental inshootlar, asosan Movarounnahr va Hindiston me'morlik uslublarining uyg'unlashuvi — yangi "hind-musulmon uslubi" bo'yicha qurilgan. Qurilish materiali sifatida oq va qora marmardan unumli foydalanilgan. Binolar devori qimmatbaho, rangli toshlar — haqiq, marvarid, sadaf, kahrabo, zumrad, yoqut va boshqa hamda fil suyagi bilan bezatilgan. Qurilishga Movarounnahr, Hindiston, Eron va Turkiya me'morlari boshchilik qilgan. Bu davr me'moriy yodgorliklaridan Humoyun maqbarasi (1565), Baland darvoza (1576), Toj Mahal (1632—50), Oltin ibodatxona (1764—66) jahon ahamiyatiga molik. Fotihpur Sikri shahri qal'asi, Ajmir va Ollahoboddagi qal'alar, Mathuradagi Govindadeva ibodatxonasi, Skandardagi Akbar va E'timoduddavla maqbaralari, Agradagi La'l qal'a, Moti masjid va Avrangoboddagi Bibika maqbarasi va boshqa Boburiylar davlati.ning yirik me'morlik obidalaridan hisoblanadi. Boburiylar davlatida miniatyura san'ati (q. Hindiston miniatyura maktablari) keng taraqqiy etgan. Boburiylar miniatyura maktabi (XVI asr 2-yarmi —XVIIIasr)ga Kamoliddin Behzodnknt shogirdlari — termizlik Mirsayyid Ali va Xo'ja Abdusamad Sheroziylar asos solgan. Bu maktab vakillari dastlab tarixiy risolalar (mas, "Dostoni amir Hamza" asari) ga miniatyuralar chizish bilan shug'ullanganlar. Bu asarga bag'ishlangan miniatyuralar 12 jild (1200 tasvir) ni tashkil etgan. Keyinchalik tasviriy san'atda portret va animalistika janrlari ham keng tarqalgan. Mirsayyid Ali boshchiligidagi musulmon va hind miniatyurachilari narsa, voqea va hodisalar manzarasini haqqoniy ifodalashga harakat qilganlar. Boburiylar davlati. miniatyura maktabiga uning so'nggi yillarida O'rta osiyolik musavvirlardan Farruxbek, Muhammad Murod Samarqandiy, Muhammad Nodir Samarqandiy, Oqo Rizo ibn Abulhasan Buxoriylar rahbarlik qilganlar. Ular "Boburnoma" "Akbarнома", "Zafarnoma",

"Jome attavorix" kabi asarlarga nafis miniatyuralar ishlaganlar. Muhammad Murod va Muhammad Nodir Samarqandiylar "Shahanshohlik murakka'i" ("Imperiya albomi") uchun ishlangan portretlar (Jahongirshoh, Shoh Jahon, Shermuhammad Navob, Shiva Parvati va boshqa), Mirsayyid Ali mo'yqalamiga mansub 80 dan ortiq miniatyura lavhalari Vena va London muzeylarida, Muhammad Murodning "Shohnoma" (Xiva nusxasi) qo'lyozmasiga ishlagan 115 ta miniatyurasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Boburiylar davlatida musiqa san'ati ham yuksak darajada taraqqiy etgan. Bu davrda mahalliy hind musiqasi Movarounnahr va Eron musiqa san'ati an'analari ta'sirida yanada boyigan. Tarixchi Xaydar Mirzo (1499—1551) ning "Tarixi Rashidiy" asarida aytilishicha, bu yerda Movarounnahr musiqiy asboblariidan torli kamonli sozlar ko'proq tarqalgan.

III bob. Davlat boshqaruvida dinning ahamiyati.

Din tarixiga oid adabiyotlarni varaqlar ekanmiz, qadimdan insonlar o'rtasidagi ziddiyat va kelishmovchiliklar sababi jamiyat a'zolaridan biri o'zining hammadan ustun ekanini isbotlashga uringanini, boshqalardan yuqoriroq mavqeini boshqalar tan olishlarini talab etganini, bu hol esa, oxir-oqibatda o'sha jamiyat osoyishtaligidagi muvozanatning buzilishiga olib kelganini ko'ramiz. Agar bu holning oldi olinmasa, ya'ni, noshukr bandaning nafsiga va ehtiroslariga erk berib qo'yilsa, u hatto xudolikni da'vo qilishdan ham toymasligi mumkinligiga ishonch hosil qilamiz.

Din osiy bandaning haddan oshishga bo'lgan ana shunday intilishlarining oldini oluvchi eng ta'sirchan omil hisoblanadi. Din bandalarni Haq taolo oldida mas'uliyatli ekanini tushunishlariga, Allohdan qo'rqib, jamiyatning boshqa a'zolari bilan bahamjihat yashashga da'vat etadi.

Hech shubha yo'qki, mamlakat boshqaruvida din eng yaxshi tayanch vositasi bo'lib, bandalarni insofu tavfiqqa, atrofidagi mo'minlarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishga, Allohdan qo'rqib yashashga, Yaratganga maqbul bo'lmay- digan ishlarni qilishdan o'zini tiyishga, o'zidan ojizlarga rahm-shafqat ko'zi bilan qarashga, Allohning yerdagi soyasi bo'lmish hukmdorga esa, hurmat-e'tiqod nazari bilan qarab, uning hukmlariga itoatgo'ylik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.¹

Hindistonda diniy vaziyat

Boburiy podshohlar hukmdorligi davrida Hindistonda musulmon dinining turli mazhablari tarqalgan bo'lib, ularning vakillari boshqa din va mazhablar bilan doimiy raqobatda bo'lar edilar. Albatta, bu raqobatni bartaraf qilish borasida hukmdorlar tomonidan ko'p ijobiy harakatlar bo'lar edi-yu, biroq mutassib qarashdagi kimsalarni ishontirshga har doim ham muvaffaq bo'lina-vermasdi.

¹ “Хидоят” // 2001 N1, 28-бет

Bu davrda Hindistonda islomning shia, sunniy mazhablaridan tashqari, yana bir qancha oqimlar mavjud bo'lib, ularning hammasi ham hukmdorga ta'sirini o'tkazishga intilardi. Ular orasida *mahdaviylar* va *muhaddislar* harakati, shuningdek *naqshbandiya* va *sodiriya* tariqati tarafdorlari kabi diniy oqimlar harakati alohida ko'zga tashlanadi. XV asrning boshlarida mamlakatning shimoliy qismida *mahdaviylar* harakati keng tarqaldi. Bu oqim sardori Said Muhammad Jopuriy bo'lib, u Islom dinini o'zining dastlabki soflik holatiga qaytarishga intilgan. Bu nazariya o'sha vaqtda keng tarqalgan "Majolisi Hazrat Bandagi Miyon Mustafo Gujari" deb nomlangan risola tamoyillariga asoslangan edi. Ta'limotlariga ko'ra, to'rt mazhab orasidagi farqlarga barham berilib, ularning barchasini birdamlikka va yakka Allohning o'zigagina sig'inishga va faqat Muhammad (s.a.v.) ilgari surgan g'oyalar gagina sodiqlikka targ'ib etishardi. Bu harakat Sind, Gujarat, Biyona, Kolpi kabi viloyatlarga keng tarqaldi va asosan dehqonchilik bilan band bo'lgan aholini qamrab oldi.

Yana bir katta oqim *muhaddislar* (hadisshunoslar) harakatidir. Maqsadlari Payg'ambar alayhissalomning o'git va nasihatlarini to'nash va ularning mohiyat va mazmunini osiy bandaga sodda til bilan bayon qilib, Payg'ambarimizning (s.a.v.) turmush tarzlarini tashviq etish bilan bandalarni Alloh irodasiga itoat ettirishdan iborat edi. Bu harakatning tepasida Shayx Ali Mutgaqiy ismli ulamo turgan. Asosiy g'oyasi barcha musulmonlarni shariat talablariga to'la itoat qilishlariga va bu talablarning sof holda saqlanishiga erishish edi. Keyin uning ishini Shayx Muhammad va Shayx Abdulhaq Muhaddis Dehlaviylar davom ettirishdi. Akbarshoh davriga kelib bu oqimga Abulfazl Allomiy* va Abdurahmon* xonixononlar yetakchilik qilishdi. *Naqshbandiya* tariqati Boburshoh hukmdorligi davrida keng yoyilgan oqimlardan bo'lib, bu oqimning Hindistondagi sardori Ziyoh Ahmad ismli shaxs edi. Ular ham shariatning sofliги uchun kurashishgan va bu borada sezilarli natijalarga ham erishishgan. Humoyun o'zishattariya tariqatiga moyil bo'lgani uchun bu harakatni qo'llab oqimdagi ayollar o'rtasida katta obro' qozondi. Niyatlari so'fiylik oqimi vakillari tomonidan Islom

* Етук уламолардан, мисрлик Шайх Муборакнинг ўғли.

* Хумоюншоҳнинг вазири, Акбаршоҳга оталик қилган Байрамхоннинг ўғли.

aqidalariga qo'shilgan qo'shimchalardan dinni tozalash va Islom ruhiga begona illatlarni siqib chiqarish edi. Ular uzoq muddat davom etadigan bedorlik ila ibodat qilishlarni, shuningdek, qattiq ovoz chiqarib zikrga tushishni va aziz-avliyolar nomiga qasam ichishlarni man qilishni talab etishardi. So'fiylikni isloh qilishdan tashqari, Hindiston musulmonlariga mahalliy kofirlardan o'tib qolgan urf-odatlariga ham qarshi kurashishardi. Shu tarzda ular *cheshtiya** tariqati tarafdorlarining musulmonlar bilan hinduizm vakillari jamoalarini o'zaro yaqinlashtirish va ular o'rtasida samimiy do'stlik rishtalarini o'rnatish borasidagi harakatlarini puchga chiqarish yo'lida ancha harakat qilib, qo'pgina muvaffaqiyatlarga ham erishgan edilar. Bu borada Shoh Jahonning to'ng'ich o'g'li Doro Shukuhning xizmatlari katta bo'ldi. U qiyosiy dinshunoslik asosida yaratgan o'z ta'limotida barcha diniy e'tiqodlar oxir-oqibatda bitta Xudoga olib borishini ta'kiddab, barcha din va mazhablarni umumlashtirish g'oyasini ilgari surgan edi.*

So'fiylikning yana bir ko'rinishi bo'lmish *qodiriya* tariqati ham Akbarshoh hukmronligi davrida Arabistondan Hindistonning Surat va Kambayot shaharlariga tijorat ishlari bilan qatnaydigan savdogarlar tomonidan keltirilgan edi. Bu silsilani mamlakat uzra targ'ib qilishda Shayx Abdulhaq Dehlaviyning xizmatlari ko'p bo'lgan. Uning ishini izdoshlari Miyon Mir Lohuriy va Kashmirlik Mul-lashoh Badaxshoniylar davom etshrdilar. Qodiriya ta'limoti Doro Shukuh va uning opasi Jahonoro Begimning diniy e'tiqodining shakllanishiga ham katta ta'sir o'tkazgan. Ular bu tariqatni 1639 yili qabul qilishgan. Biroq Avrangzeb hukmronligi davrida barcha diniy oqimlarga barham berilib, davlat ishlarini faqat Islom asosida boshqarishga o'tdi va har qanday chekinishlarga nisbatan murosasizlik qila boshladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur davri

Albatta, davlat boshkaruvida xukmdorning diniy e'tikodi vijdonan xam, raiyyat nazarida xam muxim axamiyat kasb etadi. Zero, boburiy podshoxlarning barchasi xam imon-e'tiqodi butun, insof tavik xamda adolatli bulganliklari bilan mamlakat axolisi nazarida yuksak e'tibor qozonganlar va xozirgacha shunday

* Бу оқим раҳбарларидан бири Акбаршоҳнинг пири Салим Чештий эди.

* Бироқ укаси Аврангзеб тахтни эгаллагач, бу ақидаси учун кофирликда айбланиб, қатл этилган.

qiyofada tan olinadilar. Bu xol boburiylar tarixini urganishga bagishlangan barcha adabiyotlarda boshdan-oyok, o`q, chiziqdek o`tadi va xar qadamda ta`kidlanib turadi. Ushbu saltanatning asoschisi bo`lmish moxir sarkarda va davlat arbobi Zaxiriddin Muxammad Bobur Podshohi Goziy xam diniy e`tikdii mustaxkam va imoni butun xukmdor bulib, sunniy edi. Umriiing kattagina kismi jangi jadallarga tula xolda utgan bulsa xam, u xamisha pok va xalol yurishga intilar, besh vaqt namozini kanda qilmas, zakovatining beqiyosligi va diniy-iloxy bilimlarning teranligi bilan olimu ulamolar xamda din peshvolari urtasida katta obru kozongan edi. Dindoshlariga va din ulamolariga xamisha xurmat-e`tibor bilan karab, ularning izzatini joyiga kuyardi. Usha davrning yirik ulamolaridan bulmish Xuja Ubaydulloxonni piri sifatida e`zozlashi va uning “Risolai volidiya” asarini turkiyga tarjima kilishi va musulmonchilik «koidalari va farzlarining bayoniga bagishlangan “Mubayyin” deb atalmish masnaviylar tuplamini yaratishi uning yuksak e`tiqod egasi ekanidan dalolat beradi. Shu bilan bir k,atorda, u xurofot bilan xakikat urtasidagi chegarani anik faxmlay bilgan, ular urtasidagi farkini chukur anglagan. golibona yurishlari davomida fatx, etgan yurtlar xalkining tavof etadigan mukaddas kadamjolariga, ziyoratgoxu mozor lariga xurmat-e`tibor bilan karagan, ularning oyokosti kilinishi yoxud taxdirlanishiga sira yul kuymagan. “Boburnoma”da Sind voxasi zabt etilgach, undagi mukaddas kadamjolardan bulmish Pir Konu mozorini “*xindistondagi biser mu`tabar mozor*” ekanini ta`kidlab, “*...cherik elidan ba`zilari mozorning mujovirlariga mujoim bu unun birini siyo sat uchun pora-pora qildirgani*”ni malum qiladi. Boshqa mazxab va dinlar vakillariga xam xolisona muomala kilib, ularning diniy e`tiqodi kamsitilishiga yoxud ularga boshqa din vakillari tomonidan tazyiq o`tqazilshiga sira yo`l qo`ymas edi. Boburshoxning Xindistonda xukmronlik qilgan davri tarixiga bagishlangan ayrim manbalarda muallnflar uning gayrimuslim fuqarolardan jiz`ya soligini jori etganlikda ayblab nolishadiyu,¹biroq “Mubayyin “ asarida to`la taxlil etib berilganidek, musulmonlardan zakot soligi olinishi xaqida

¹ “Хидоят” // 2001. N2, 30- бет

lommim deyishmaydi va davlatni boshkarishdagi bu muxim siyosiy omilni nazardan kochirishadi.

Humoyunshox, davri

Diniy mazxablarga va Islomdan boshka dinlarga nisbatan xolisona va begaraz siyosat olib borilgani Boburshoxning valiavdi Nosiruddin Xumoyunshoxning xukmdorlik paytida xam yakkol kurinadi. E'tiqodiga ko'ra, Xumoyunshox so'ng bo'lgan, juda taqvodor musulmon edi. Ayni chogda, boshqa mazxablarni xam xurmat qilar, ularga oq ko'ngillik va samimiylik bilan muomala qilar edi. Buning yorqin misoli sifatida uning shia masxabidagi Mir Bobo Dustning qizi Jamilabonuga uylanishini, shuningdek, shia masxabidagi Bayramxonni uziga bosh vazir etib tayinlashini, shu masxabdagi Eron shoxi Shox Taxmasi bilan davlat munosabatlari borasida tutgan yulini ko'rsatsa bo'ladi.

Ana shunday ulug martaba egasi bo'lishiga qaramay, Akbarshox nihoyatda kamtar edi. Ba'zilar uni uzlariga pir bulishini surab murojaat kilishganida, u kamtarlik bilan: "Men o'zim pirga muxtojlik sezib turganim bir paytda qanday qilib sizlarga pir bo'la olaman", deya javob berar ekan. Otasi umrining oxirigacha kamtar, xudojuy inson va sodiq, musulmonligicha qolganini uning valiaxdi Jaxongirshox xam o'zining "Tuzuki Jaxongiriy" deb atalgan xotiranomasida aloxida ta'kidlab yozgan. aytishicha, Akbarshox tabiatda bo'shliq, joyning o'zi bo'lishi mumkin emas, Alloh xar joyda xoziru nozirdir. Yaratuvchi Allox bilan yaralmish banda o'ratasida til bilan izoxlab bo'lmaydigan bog'liqlik rishtalari mavjuddir", deya ta'kidlab turar ekan.

O'sha paytda missioner sifatida Xindistonga kelgan va "Din panox"dagi munozaralarda qatnashib, shox saroyida ancha muddat umrguzaronlik qilgan g'arblik nasroniy roxiblardan biri Akbarshox xaqida shunday deb yozgan ekan: "U xaqiqdtan xam buyuk xukmdordir: u xamma uchun sevimli podshox bulib bir fuqaroning gamxo'rligini tuyib turar edi. U saroy ayonlariga samimiy, quyi tabaqadagilarga esa, shafqat nazari bilan munosabatda bular, ko'pincha tabaqasi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, xammaga bir xil e'tibor berardi. U Allohdan qo'rqib

yashar, besh maxal namozini kanda qilmas, o'zining qanchalik band bo'lishiga qaramay, namozlarining qoidalariga rioya qilar edi".

Akbarshoxning 1562 yili Jaypur viloyati rojasi Todar Malning qiziga uylanishi, 1570 yilda ugli shaxzoda Muxammad Salimni Bikonar va Jaysalmor viloyatlarining rajput xokimlarining kizlariga uylantirishi xam mamlakatda tinchlik osoyishtalik urnatishning nakddar ta'sirchan usullaridan foydalanganini ko'rsatadi. Maxalliy axoliga kursatilgan ishonch va e'tibor raiyat nazarida Akbarshoxning xurmat e'tiborini oshirib yuborgan edi. Asrlar bo'yi musulmonlarga qarshi kurashib kelgan rajputlar podshox siyosatidan mamnun bo'lib, uning xizmatiga kirib, unga ,sadoqat bilan xizmat qilishga intila boshladilar. Bu xol saltanat negizini mustaxkamlashga omil bo'lar edi. Xarbiy yurishlar davomida xind mansabdorlari eng og'ir va mas'uliyatli joylarga yuborilar va o'zlariga bildirilgan ishonchdan g'ururlangan rajputlar jang maydonlarida jon-jaxd bilan jangga kirib, qaxramonlik va sadoqat namunalarini ko'rsatishar edi. Musulmonlar va maxalliy raiyat vakillari o'rtasidagi o'zaro xurmat munosabaglarini tiklash va tinch-totuv yashashlarini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan bu tadbir choralar Akbarshox saltanatining tobora xududan kengayishiga va saltanat negizining Xar tomonlama mustaxkamlanishiga, mamlakatning gullab yashnashiga, xukmdorning esa, "Buyuk Akbar", "Xalq, podshoxi" "Milliy kaxramon" kabi oliy unvonlarga sazovor bo'lishiga olib keldi. Xind tarixnavisi R.P.Tripatining ta'biri bilan aytganda, Akbarshox "...o'z davrining xam bolasi, xam otasi edi".

Jaxongirshoh xukmronlik kilgan davrdagi din va unga nisbatan xukmdorning munosabatini baxolashda xind tarixnavisi L.P.Sharmaning fikrini bayon qilish maqsadga muvofiq, ko'rinadi. Uning fikricha, Jaxongirshoxning diniy e'tiqodi va dinga nisbatan olib borgan siyosati vali- ne'mati Akbarshox bilan valiaxdi Shox Jaxon olib borgan diniy siyosatga nisbatan qandaydir *o'rtaliq joyni* egalladi. O'zi xudojuy kishi bo'lib musulmonchilikning asosiy qoidalariga itoat qilar edi- yu, lekin berilib, amal qilmas edi. Barcha diniy etiqodidagi kishilarga baravar muomala qilardi. Ovrupalik nasroniy missionerlar bilan yaqin muloqotda bu o'lar, xatto ulardan ayrimlarini nevaralariga tarbiyachilik qilishlari uchun ishga

xam yollagan edi. Albatta, siyosiy vaziyat talab qilgan xarbiy yurish va jang paytlarida buddachilar yoki nasroniylarning ibodatxonalarini vayron kildirgan xollar xam bo'lgan, biroq, tinchlik davrida diniy e'tidoi uchun fuqoroning ta'qib etilishiga sira yo'l qo'ymas va barcha dinlar davlat tomonidan baravar ximoya qilinar edi. Kashmir voxasidagi Rajuriy shtatida butparast xindlar mulsulmon ayollarga uylanib olgach, xotinlarini xinduizmni qabul etishga majbur qilganlaridan xabar topgach, Jaxongirshox ularni kattik jazoga maxkum etgan edi.

Shox Jaxonning diniy e'tiqodi va umuman boshqa dinlarga bulgan munosabatiga kelsak, albatta, unda bobosi va otasiga nisbatan musulmonlikka ko'prok, berilgani sezilib turadi. Biroq, nasroniylik va xinduizmni xam takiklamaydi. Bobosi va otasining diniy siyosatiga sodiq qolgani uchun maxalliy xindlar unga katta xurmat nazari bilan qaraydilar.

Avrangzeb Olamgir davri

Boburiy podshoxlar xukmronligi tarixida xukmdorning dinga munosabati borasida Avrangzeb Olamgir davri aloxida axamiyat kasb etdi. Avrangzeb yoshligidanoq, o'ta xudojuy, takdvodor musulmon, kamtar inson edi. Shariat qoidalariga va Qur'oni Karim talablariga qat'iy rioya qilardi. Yeydigan taomlari va kiyadigan liboslari xam juda sodda bulib, ortiqcha xasham va zebu ziynatlarni yoktirmas edi. Umrida biron marta xam kayf qiladigan ichkiligu giyoxni totib kurmagan taqvodor inson edi. Shuning uchun bulsa kerak, ayollar bilan bo'ladigan ishratlardan xam uzini chetda tutardi. Uning xotinlari bir vaqtning uzida turtadan ortmagan. bor-yog'i bittagina kanizak saqlar edi. Uning musulmonlikka etiqodi shunchalik kuchli ediki, L.P.Sharmaning guvoxlik berishicha, Markaziy Osiyo o'lkalariga qilingan xarbiy yurishlar davomida bo'lib utgan shiddatli janglardan birida, jang keskin tusda davom etib turgan paytda otdan tushib peshin namozini o'qigan, so'ng yana janga kirib ketgan ekan.¹

Avrangzeb Shox Jaxonning Mumtoz Maxaldan tug'ilgan too'rt o'g'ilning uchinchisi bo'lib, u 1618 yilning 24 oktabrida Xindistonning Ujjayn viloyatidagi Doxats shaxrida otasi., xarbiy yurishlarda yurgan paytda dunyoga

¹ "Хидоят" // 2001 N3 30-бет.

keldi. Bolaligidanoq, arab forsiy turk va xind tillarini yaxshi o`rgandi. Arab alifbosining nasta`lik va shikasta usullarida moxir xattotlar kabi yozar edi. Yoshligidanok, mukdadas Qur`oni Karim oyatlarini mukammal, ularni taxlil qila oladigan darajada o`rgandi.

U qurol ishlatish va jang olib borish san`atini xam yaxshi egallagan bo`lib, harbiy yurishlarda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Markaziy Osiyoga va Kandaxorga qilingan yurishlarida, shuningdek, Gujarat xamda Dekkon ulkasining turtta viloyatida xokimlik kilib turgan` paytlarida katta tajriba to`plagan bo`lib, bu tajribalari taxtga da`vogarlik kilgan aka- ukalariga qarshi olib borilgan shiddatli janglarda juda qo`l keldi. 1658 yilning iyun oyida taxtni kulga kiritib, uzini boburiylar saltanatining po shoxi Abdul Muzaffar Muxyiddin Muxammad Avrangzeb Baxodir Olamgir Podshoxi Boziy deb e`lon qildi. Avrangzeb taxtga chiqqan kundan e`tiboran o`z oldiga mamlakatni odilona idora qilish bilan bir qatorda Islom dinini, ayniqsa uning sunniy masxabi aqidalarini ximoya qilishni va uning tasir doirasini yanada kengaytirishni eng asosiy maqsad qilib qo`ygan edi. 'Uning xukmdorlik nazariyasining asosiy shiori "Dorul xarb"<sup>5</sup> bulmish Xindistonni "Dorul Islom"<sup>ga</sup> aylantirish edi. Ellik yillik xukmdorlik faoliyati davomda Avrangzeb ana shu aqidaga sodik qoldi va bu e`tiqodidan bir daqiqa xam voz kechmadi. Zarb qilinadigan tanga pullarga Qur`oni Karim oyatlarini o`yib yozish uning davrida taqiqlandi. Shundan so`ng va sozandalar saroydan quvib chiqarildi; mamlakat xududida mayparastlik va giyoxvandlik xamda qimor uynash qat`iyan taqiqlandi; ersiz ayollarga erga tegish, aks xolda, mamlakat xududidan chiqib ketish talabi qo`yildi; gayridinlarning marosimlarini saroyda nishonlashga barxam berildi. Shuningdek, axrlining shariat takiklagan ishlar bilan shugullanishlarini nazorat qiladigan maxsus lavozim muttasib lavozimi ta`sis etildi bu mansab egasiga cheksiz edkukdar berildi. Masjid va madrasalar va xonaqolarni qayta ta`mirlash va yangilarini qurishga farmon berilgani xolda gayridinlarning butxonalari va maktablarini ta`mirlash va yangisini qurish taqiqlandi. Ko`pgina butxonalar o`rniga masjid va madrasalar qurildi. 1679 yildan e`tiboran nomusulmon xindlardan jiz`ya solish undirish va ularning muqaddas qadamjolarini ziyorat qilganliklari uchun

qo`shimcha soliq, to`lash tartibi joriy qilindi. Musulmon savdogarlardan molining besh foizi miqdorida mol uchun olinadigan soligi bekor qilingani xamda gayridin savdogarlar uchun bu tartib saqlanib qoldi, soliq, yigadigan idoralarda nomusulmonlarning ishlashiga chek qo`yildi. 1688 yildan e`tiboran yuqori mansabdagi gayridinlarning maxorabada (taxtiravonda) va chiroyli otlarda sayr qilishlari xam cheklab qo`yildi. Bunday tadbirlardan kutilgan asosiy maqsad mamlakat miqyosida ko`pchilikni tashkil etuvchi mahalliy gayridin xindlarni musulmon dinini Kabul kilishga undash edi. Islom diniga utishga chorlash uchun ularga turli imtiyozlar, lavozimlar, pul, yer-mulk va boshqa mablag`lar berilar edi. Ko`rinib turibdiki, Avrangzeb beqiyos xokimiyatga ega bo`lgan podshohlik xokimiyatidan diniy tashviqot uchun keng foydalangan. Davlatni boshqarish ishlarini esa, uzining shariat aqidalari asosida tuzilgan “Fatovoi Olamgiri” asari asosida olib borgan, ya’ni, xokimiyatni dinga xizmat qildirgan edi.

Xuddi, uning bu siyosati nimalarga olib keldi va qanday natijalarga erishildi. Boshqa dinlarga va bu dinlar vakillariga nisbatan olib borilgan ba’zi qattiqqo`l siyosat natijasida mamlakatning asosiy ko`pchilik qismini tashkil etuvchi g`ayridinlar va ularning turli masxablar vakillari podshohning itoatgo`y fuqarosiga emas, balki gazabnok raqibiga aylanib qoldi.

Avrangzeb Olamgir Podshox 1707 yilning 3 martida 90 yoshida bu bevafo yorug` olam bilan vidolashdi. Tarixda ana shunday nom qoldirgan buyuk shaxslarning xayot tarzi, dunyoqarashi, ayniqsa, ularning e`tiqodi ,xar biri miz uchun saboq, bo`ladi, degan umiddamiz. Ularni yaxshilab taxlil qilish va to`g`ri xulosalar chiqarib olish xar birimizning vazifamizdir.

Xulosa

Istiqlol tufayli moddiy va manaviy qadriyatlar ardoqlanib, madaniy merosga, o'tmish tariximizga, tarixiy ajdodlarimizga yangicha munosabat shakllandi. Bu munosabat zahirida millat tarixiga daxldor bo'lgan ulug' davlat arboblari, alloma va ijodkorlar merosini o'rganish va qayta nigozdan o'tkazishga imkoniyat yaratildi.

“Bobur xarakterining mislsiz belgisi uning boshqa hukmdorlarinikiga mos kelmasligidir. Bu tabiat osiyo tojdorlariga xos maxobat ... sun'iylikdan farqli o'laroq tabiiydir, samimiy xayotni sevgan insoning tabiatidir...”-deb yozadi ingliz olimi U.Erskin

“Boburiylar davlati boshqaruvida din” mavzuyidagi bitiruv malakaviy ishida Bobur shaxsiga aloxida to'xtaladik, uning iste'dodi, jo'shqin faoliyati, bevafo taqdiri, barcha nayranglarga qaramay ruhining tetikligi, sahiyligi, mardligi, fanga, sanatga munosabati, osiyolik saltanat sohiblari orasida unga teng keladigan birorta ham podshoh yo'qligini tarixiy manbalar asosida yoritishga xarakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishida Boburning Hindistondagi diniy vaziyatni chuqur anglagan xolda, bag'ri keng (tolerant) siyosatni amalga oshirganligi alohida takidlandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab, tariximizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, sovet davrida noto'g'ri baho berilgan yoki yuzaki ko'rib chiqilgan masalalarga jiddiy ilmiy yondashuv kuchaydi. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyundagi

“O'zRFA Tarix insituti faoliyatini takomillashtirish xaqidagi” qaroridan so'ng xaqoniy tarixni yaratish, bu jarayonda birlamchi manbalarga asosiy etibor berish, qo'yilgan muamoni soxa mutaxasislari tomonidan xal etilishi, mavjud muamolar yechimini ilmiy asoslash borasida anchagina ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan uzoq o'tmishg borib taqaluvchi ulkan tariximizda techmini kutayotgan muammolar talaygina. Ana shunday fundamental masalalardan biri o'zbek xalqi davlatchiligi xamda davlat boshqaruvi tarixidir.

“Boburni nasl nasabi Chingizhon va Temurga borib taqaladi. Shuning uchun ham ularning kuch – qudrati va xarbiy salohiyati unga meros bo’lib qolgan. Bobur zamondoshlari orasida eng madaniyatli va dilbar insonlardan biri edi,” deb yozadi Javaharlal Neru¹

Darhaqiqat Bobur ilm va fanning, san’atning, umuman hayotning hamma soxalari bilan yaqindan qiziqqan g’ayrat va tashabbus sinchkovli va estedodi uni o’z davrining ulug’ namoyondalaridan biriga aylantirdi. U o’z zamonasida mamlakatda hamjihatlik o’rnatish bilan birga moddiy va manaviy boyliklar bunyod etib, mo’l-ko’lchilikni ta’minlashga xam aloxida etibor beradi.

¹ Lutfullo Mahmud Boburni tushinish baxti T.: 2009 2- bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. I.A.Karimov Yangicha fikrlash va ishlash –davr ta`labi.asarlar 5-jild T.:1997
2. I.A.Karimov XXI asr bosag`asida xavfsizlikka tahdid,va barqaorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari T.:1998
3. I.A.Karimov Yuksak manaviyat- yengilmas kuch manaviyat T.:2008.
4. Gulbadanbegim Xumoyunnoma T.: 1959.
5. Bobur Asarlar 3 jildlik T.: “Fan” 1965-66
6. Bobur Muxtasar T.: 1971
7. Азимжанова С Государство Бабура в Кабуле и в Индии М.: 1982
8. Qudratullayev H Boburning adabiy-estetik qarashlari T.: “Fan” 1983
9. Ахмедов Б Историко – географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв T.:1985
- 10.Bobur Devon. T.: “Fan” 1994
- 11.Azimjonova S. Zahiriddin Muhammad Bobur (maqolalar to`plami) T.: 1995
- 12.Nizomidinov I G` XVI-XVIII asrlarda O`rta Osiyo–Hindiston munosabatlari T.:1996.
- 13.Erskin U. Hindistonda Bobur davlati (ingliz tilidan Sotimov G` tarjimasi) T.:1997
14. Mashrabov Z., Shokarimov S Asrlarni bo`ylagan Bobur T.:1997 .
- 15.Sharma R. Boburiylar saltanati (Sotimov G` tarjimasi) T.: 1999
- 16.Voxidov R Biz bilgan va bilmagan Bobur T.: 2000
- 17.O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2-jild T.: 2001
- 18.Bobur Mubayyin T.: 2001
- 19.Jalilov S Bobir va Yuliy Sezar T.:2001.
- 20.Sotimov G` ”Boburiylar davlati boshqaruvida din” Hidoyat// N 2 ,3 2001
- 21.Lutfullo Mahmud Boburni tushinish baxti T.:2009
- 22.Google.uz.
- 23.Islom.uz.
- 24.www.Ziyo.net.uz

Novalar



